جديد

# Jadid

*Tilda, fikrda, ishda birlik!*

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

2024-yil 13-dekabr
№ 51(51)
www.jadid-media.uz

MILLAT FIDOYILARI

## TARIX TILGA KIRGANDA



Qatag‘on yillarida yurt ozodligi, vatan ravnaqi uchun qattol tuzumning kundasiga bosh qo‘ygan ajdodlarimiz haqida ko‘p bong uramiz. Ammo ularning ko‘pchiligi to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotga ega emasmiz. Zotan, sobiq tuzum bunga yo‘l bermasdi. Nihoyat, jadidlar qoldirgan boy ilmiy, adabiy merosni, shuningdek, qatag‘on qurbonlari hayotini o‘rganish imkoni tug‘ildi. Biz kabi olimlar arxiv hujjatlari bilan tanishib, ilmiy izlanishlar olib borishi uchun yetarli chora-tadbirlar ko‘rildi. Ana shundan keyin o‘zga yurtlardagi  maxfiy arxivlarda saqlanayotgan “qatlnoma”lar ham tilga kirdi.

*(Davomi 7-sahifada).*

TAASSUROT

## O‘TMISHGA OCHILGAN VAQT QOPQASI








**MA’LUMOT O‘RNIDA: mash’um qatag‘on yillari O‘zbekiston prokuratura tizimida o‘rtacha to‘qsonta ish o‘rni (shtat) bo‘lgan. Tabiiyki, bu xodimlar orasida sobiq imperiya markazidan biron ishni eplolmay “urilib-surilib” (balki jinoyatini bekitish uchun qochib) kelgan qalang‘i-qasang‘i “mutaxassislar” ham bor edi. Ular tizimdagi o‘zbeklarga doimo ola qarashgan. 1937-38-yillardagi “qirg‘inbarot”ga ham, asosan, mahalliy millat vakillari duchor qilingan. Arxiv hujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, o‘sha yillari O‘zbekiston prokuratura tizimida ishlagan xodimlardan ikki yuz o‘n kishi qatag‘on qurboni bo‘lgan ekan.**

Kuni kecha “Jadid” gazetasi xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi qoshida 2022-yildan buyon faoliyat ko‘rsatayotgan Qatag‘on qurboni bo‘lgan prokuratura xodimlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan muzeyda bo‘ldi. Eng zamonaviy andozalarda qayta ta’mirlanib, ish boshlagan muzey zallari tomoshasini boshlaganimizda, dastlab, bu yerda muzeychilik sohasining eng ilg‘or texnologiyasi joriy bo‘lganidan quvondik. Biroq bu quvonch uzoqqa cho‘zilmadi...

Buyuk ajdodlarimiz Amir Temur va keyingi xonlik zamonlaridagi qonun nazorati tarixidan hikoya qiluvchi bo‘limlarni aylanib, yurtimizda qonun va qonunchilik doimo ustuvor bo‘lganidan qoniqish tuydik. Qonun posbonlari doimo el-yurt manfaati uchun xizmat qilganini ko‘rsatadigan qadimiy jihozlar, ko‘rgazmali vositalar, xat-hujjatlar, o‘sha davr manzarasini aks ettiradigan rasmlar tomoshabinni nafaqat befarq qoldirmaydi, balki qonun amaliyoti borasida yaqqol tasavvur beradi.

*(Davomi 2-sahifada).*

ESSE

**Sulton RAYEV**

**MUALLIFDAN:**
**12-dekabr – Chingiz Aytmatov tug‘ilgan kun…**
**Bu kunda nafaqat bitta yozuvchi tavallud topdi, balki qirg‘iz tarixida yangi davr tug‘ildi. Qirg‘iz ma’naviyati, erkin tafakkuri cho‘qqilari bevosita shu nom bilan chambarchas bog‘liq... Shu kuni u dunyomizga o‘z davriga, zamonga, cheksizlikka, insoniy tuyg‘ularga sig‘maydigan alohida tafakkur shakllari, ma’naviy quvvat bayroqdori sifatida kirib keldi.**
**Uning So‘zi avloddan avlodga o‘tib kelayotgan buyuk vijdon va haqiqat karvoniga o‘xshaydi. Uning So‘zi, Tafakkurining yo‘li abadiydir...**

## CHINGIZ AYTMATOV

### AYTMATOV: BIRINCHI VA SO‘NGGISI

Aytmatov haqida yozishni boshlashimdan oldin u bilan bog‘liq ikkita voqea yodimga tushdi. Bular mening u bilan bo‘lgan birinchi va so‘nggi... uchrashuvlarim... Bu uchrashuvlarning har ikkisi ham ko‘nglimdan chuqur joy olgan va go‘yoki o‘chmas olov kabi qalbimni mudom yondiradi. Nazarimda, bu ikki uchrashuv o‘rtasida abadiy bog‘liqlik mavjudga o‘xshaydi. So‘zimni shu uchrashuvlar tafsiloti bilan boshlasam...

1975-yil. Saraton. Men maktabni tamomlab, institutga o‘qishga kirish harakatida edim. Qo‘limga maktabning yetuklik attestati tegishi bilanoq Sergey Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti (VGIK)ga o‘qishga kirish uchun Moskvaga otlandim.

Maktabda o‘qib yurgan davrimda “Sovetskiy ekran” jurnalida kinorejissyor bo‘lish uchun Sergey Gerasimov ijodiy ustaxonasida tahsil olgan Zamir Eraliyev haqidagi maqolani o‘qiganman. Bizning tanishuvimiz shu orqali boshlangan edi, so‘ngra u menga xat orqali rejissyor bo‘lishni istaganlar bajarishi zarur bo‘lgan barcha shartlar va talablarni jo‘natib turardi.

Sergey Eyzenshteynning olti jildlik asaridan boshlab, kino ustalari – Dovjenko, Gerasimov, Qulijonov, Piryev va boshqalarning kino san’ati haqidagi barcha asarlarini o‘qib chiqdim. Ammo hatto filmlar tomosha qiladigan kino klubi ham bo‘lmagan ovloq bir qishloqda tug‘ilib o‘sgan menday g‘o‘r yigitchaga bunday mutolaalar nima ham berishi mumkin edi? O‘qiganlarim miyamda mexanik ravishda muhrlandi, xolos. O‘qiganlarimdan nimalarnidir tushungan bo‘lsam-da, biroq anglab yetmaganlarim bisyor edi.

“Men, albatta, o‘qishga kirishim kerak!” – degan fikr orom bermay qo‘ydi. Shunday xayollar bilan tun-u kun ko‘z o‘ngimda namoyon bo‘ladigan Moskvadagi mashhur VGIK qarshisida o‘zimni ko‘rdim.

Go‘yoki faqat meni kutib turgandek institut eshiklari lang ochiq, yo‘laklar bo‘m-bo‘sh, ikki-uch kishigina u yoqdan bu yoqqa o‘tib-qaytib turardi. Qorovulning, “E, imtihonlar qachonlar tugagan... Ortingizga qaytib ketavering, endi kelgusi yil kelasiz...” degan gapi ustimdan bir chelak muzday suv quyib yuborgandek bo‘ldi.

Keyin bilsam, imtihonlar “qachonlar” emas, ikki kungina oldin tugagan ekan. O‘shanda ijodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari kirish imtihonlari boshqa ta’lim muassasalaridan biroz ertaroq boshlanishidan xabarsiz edim. Shu tariqa orzu daraxtimning yaproqlari to‘kila-to‘kila Frunzega qaytdim...

Endi men sal oldinroq mensimaganim – Frunze shahridagi duch kelgan bir institutga kirishga qaror qildim. Tavakkal qilib Qirg‘iziston Milliy universitetining tarix fakultetiga hujjat topshirdim.

*(Davomi 4-5-sahifalarda).*

OGAHIY TAVALLUDINING 215 YILLIGI

**Matnazar ABDULHAKIM:**

## OGOHLAR OGOHI

**Adabiyot katta ma’noda olib qaraganda o‘z ishini bilib qiladi. Unga ko‘rsatma emas, unga madad kerak.**

***Ogahiy, kim topgay erdi sozi***
***nazmingdin navo,***
***Bahra gar yo‘qdir Navoiyning***
***navosidin sango.***

**Ba’zida o‘zini adabiyotga doxil sanaydigan davralarda ham bema’ni bahs-munozaralar bo‘lib turadi. Shulardan bittasi hazrat Ogahiyning buyuk merosidan bir qatragina totinganlarning uni Navoiyga qiyos eta boshlashidan kelib chiqadi. Ogahiyning merosini tadqiqotchilarimiz kamida qirq tomlik deyishadi.**




Bu juda ulkan meros. Shuning qoshida hayajon bosganlar Navoiy buyukmi, Ogahiy buyukmi, deyishgacha borishadi. Holbuki, Ogahiy hazratlari o‘z taxallusini ham Navoiy bobomiz ijodiy merosidan kelib chiqib tanlagan. Alisher Navoiyning “Xamsa”sida mana bunday misralar mavjud:

***Erursan shoh, agar ogohsen sen,***
***Agar ogohsen sen, shohsen sen.***

Otam rahmatlik aytguvchi edilar: “Hamma narsaning jahlidan fahmi afzal”, deb. Yomon ishlarni aslo qilmaslik kerak, biroq ana shu gunoh ishlarning yo‘rig‘ini bilsang, ularga qarshi kurashmog‘ing oson kechadi. Shoh bo‘lish uchun esa taxtda o‘tirish, toj kiyishning o‘zi kifoya qilmaydi. Toj-taxt egasi bo‘lib, o‘z g‘ofilliklari oqibatida o‘ziga qo‘g‘irchoq bo‘lishi kerak bo‘lganlarning qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lganlar qadimda ko‘p bo‘lgan. Faqat, saltanat sohiblarini ogoh bo‘lishlari kerak, deb o‘ylasak, albatta, kaltabinlik bo‘lur edi. Haqiqiy OGOH Allohning o‘zidir. Biz o‘z fazilatlarimiz bilan, to‘g‘rirog‘i, o‘zimizda fazlni tarbiyalash bilan Allohga taqlid qiladigan bandalarimiz, xolos.

Navoiyning ham, Ogahiyning ham ruhini chirqiratadigan gap masalasida... Nima ham derdik... bir vaqtlari “Erkin Vohidov zo‘rmi, Abdulla Oripovmi?” degan bachkana savolga Omon Matjon “Gurlanda momolarimiz “Tarozi-tarozi o‘ynamanglar, yurt buziladi”, deguvchi edilar. Men ham shu javobni takrorlayman”, deb aytgan edilar.

*(Davomi 6-sahifada).*

AKS SADO




**TAHRIRIYATDAN: gazetamizning 2024-yil 6-dekabr sonida chop etilgan Ikrom Bo‘riboyevning “Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” sarlavhali maqolasi yurtdoshlarimiz orasida keng muhokamalarga sabab bo‘ldi. Tahririyatga kelayotgan ko‘plab qo‘ng‘iroqlaq va maqolalarda ham unda ko‘tarilgan dolzarb masalalar yuzasidan munosabat bildirilmoqda. Quyida ularning ayrimlarini e’tiboringizga havola qilmoqdamiz. Gazeta bu boradagi barcha fikrlarga ochiq va sizni ham bahs-munozaralarga chorlaymiz.**

## O‘ZIMIZNI...
## O‘ZIMIZDAN QUTQARAYLIK!

Bu maqolani yozishimga taniqli ijodkor Ikrom Bo‘riboyevning “Jadid” gazetasida chop etilgan “Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” deb nomlangan tahliliy maqolasi sabab bo‘ldi.

Ochig‘i, ong-u shuurimizni ijtimoiy tarmoq o‘ziga tobe etib olgan hozirgi kunda KITOB haqida gapirish kulgili tuyuladiganday. Chunki hammaning qo‘lida telefon. Faqatgina biz emas, barcha o‘lkalarda turfa odamlarning ahvoli shu – telefonga termilib qolgan: ko‘chada, xiyobonda, oshxonada, to‘yda, ta’ziyada, avtobusda, metroda, kemada, uchoqda... Hamma joyda xo‘roz bir xil qichqirayapti.

Oldinlari kitobga termilgan, kitob o‘qigan, hayotini nurlantirgan odamlar bugun umrini telefonga “yediryapti”. Internet yaxshi, albatta, uzog‘imizni yaqin, fursatimizni chaqin qildi, lekin nazarimda, odamzot tayyor emas ekan bunga... O‘zimizni o‘zimizdan uzoqlashtirdi. Hissiyotlar muzlab bormoqdaki, bunga bandilik oqibatida, yaxshi-yomon qorishiq abgor dunyoning ahvoli tasavvurimizdan ezgulikka esh tushunchalarni siqib chiqarmoqda.

Tan olaylik, deyarli hammamizning uyimizda shu ahvol, bolalarimiz, nevaralarimiz o‘zimizga qo‘shilib telefonni “yeb-yutishmoqda”.

*(Davomi 2-sahifada).*

O‘ZBEK TILIM – O‘Z TILIM

## AZIM YURTNING AZIZ TUPROG‘I



**Vadim YERZIKOV, “Kursiv” biznes nashri bosh muharriri o‘rinbosari:**

– O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan har qanday millat vakili, albatta, o‘zbek tilini bilishi hamda shu elning an’analarini hurmat qilib, e’zozlashi shart, deb o‘ylayman.

Shaxsan o‘zim bu tilni mukammal bilaman. O‘zbekiston Prezidenti tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlarni muntazam o‘qib boraman. Shu tariqa yurtimizda kechayotgan islohotlar, yangiliklar va o‘zgarishlardan o‘z vaqtida xabardor bo‘laman. Bu – ishimda ham asqotadi.

Shu yerda voyaga yetib, yashab, o‘zbek tilini bilmasam, uning tarixini anglamasam, qiziqmasam, qanday qilib yetuk, ilmli inson sanayman o‘zimni?

Men 1990-yili Toshkent shahrida tug‘ilganman. Bolaligimning sho‘x-shodon yillari o‘zbeklarning taftli, mehrli, samimiyatga to‘la davralarida ertaklardagiday sehrli o‘tgan desam, hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ertadan kechgacha o‘zbek o‘rtoqlarim bilan ko‘cha changitib koptok tepardik, yoz chillasida ariqlarda cho‘milardik, qishda qorbobo yasab, qorbo‘ron o‘ynardik... Biri akam, biri ukamday qadrdon bo‘lgan. Hozir ham shunday. To‘y-ma’rakalarimiz bir.

2015-yilda Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universitetining iqtisod yo‘nalishini tamomladim. Shu bilan birga, onlayn media maktabda jurnalistika asoslarini o‘rgandim. 2019-yildan buyon esa, “Kursiv” biznes nashrida faoliyat yuritib kelaman. Mazkur nashrda media xabarlarini rus, ingliz va o‘zbek tilida e’lon qilamiz.

Ishonasizmi-yo‘qmi, xabarlarimizning eng ko‘pini o‘zbek kuzatuvchilari o‘qishadi va bundan juda mamnunmiz.

Bilasizmi, o‘zbek xalqining madaniyati, urf-odatlari yuragimga shu qadar yaqinki, buni so‘z bilan ta’riflay olmayman. Erta tongda tursam, olam tinch, qish oyi bo‘lsa-da quyosh charaqlab turibdi. Ishimizda unum, uyqumizda orom bor. Hech narsaga zor emasmiz. O‘zbekcha qilib aytsam, qora qozonimiz qaynab turibdi. Muhimi, yegan-ichganimizda halovat bor. Bundan ortiq yana nima kerak bizga?

Bunday yurtning, muqaddas zaminning qadriga yetmay, tuprog‘ini o‘pmay, millat tili bo‘lmish o‘zbek tilini ardoqlamay bo‘ladimi!

Shu azim yurtning aziz tuprog‘ida yashayotganim – mening eng katta boyligim, baxtim va saodatim!

**Zarnigor IBROHIMOVA yozib oldi.**



# O‘TMISHGA OCHILGAN VAQT QOPQASI

Boshlanishi 1-sahifada.

Muzey zallarida Turkiston Muxtoriyati, Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi, Buxoro, Xorazm xalq sovet respublikalari, O‘zbekiston SSR va uning tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlar kesimida qatag‘onga uchragan prokurorlar va ularning vatan ravnaqiga qo‘shgan hissasi namoyish etilib, har bir qism o‘sha davrga tegishli ashyolar, qimmatbaho eksponatlar bilan boyitilgan.

Prezidentimizning 2023-yil 31-avgust kuni “Shahidlar xotirasi” xiyobonida bildirgan konseptual fikrlari va topshiriqlari ijrosi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida muzey binosining birinchi qavati va yerto‘lasida bir ming uch yuz metr kvadrat maydonda qatag‘on qurboni bo‘lgan soha xodimlari xotirasini abadiylashtirishga bag‘ishlangan ikki mingdan ortiq tarixiy eksponat tomoshabinlar hukmiga ilk bor havola qilinmoqda.

Qatag‘on yillari deyilganda, ko‘pchilik, negadir faqat o‘ttizinchi yillarni eslaydi. Holbuki, sovet tizimining qatag‘on mashinasi hech qachon tinim bilmay ishlagan. Xususan, 40–50, 60–70, 80-yillarda ham yangidan yangi qatag‘on to‘lqinlari bostirib kelib, o‘zbek qonun posbonlari taqdirini yakson qilib o‘tgan edi.

O‘zbekiston rivoji uchun katta hissa qo‘shgan prokurorlar Abdurahim Yusufzoda, Boboxun Salimov, Sultonqori Jumaniyozov, Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqov, Sa’dulla Po‘latxo‘jayevlarning taqdiri haqida hikoya qiluvchi stendlar, ular to‘qnash kelgan fojialar bilan bog‘liq video va sahnali ekspozitsiyalar mustamlaka davrining mash’um qiyofasini kishi ko‘z o‘ngida gavdalantiradi.

– Bugungi kunning muzeyi, albatta, raqamli bo‘lishi kerak, – deydi Bosh prokuraturaning Kadrlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Oybek Sultonov. – Biz ham yangi raqamli texnologiyalar, eng so‘nggi texnikalar, xususan, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanib, “Adolat hamisha g‘olib” nomli prokuratura sohasi tarixiga bag‘ishlangan mepping – shou tayyorladik. Shuningdek, Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya kabi davlatlar tajribasini o‘rganib, surgundagilarning mehnat lagerlari va qahramonlar mulyajlarini yasab, taqdim etdik. Yana bir jihatga e’tibor qaratish kerak. Ba’zilarda prokuraturaning o‘zi jazolovchi organ emasmidi, degan savol tug‘iladi. Aytish lozimki, arxiv ma’lumotlarida millatimizga nisbatan qatag‘on bizga millatdosh bo‘lmagan xodimlar tomonidan tashkil etilgani hujjatlar bilan o‘z isbotini topgan. O‘zbek prokurorlar esa bir-ikki, uzog‘i uch-to‘rt yil ishlab, qatag‘onga uchrab ketgan. Biz har bir eksponatga prokuratura arxivi hujjatlarini biriktirganmiz.

Muzeyning o‘ttizinchi yillar qatag‘oniga tegishli bo‘limlariga o‘tganimizda ko‘pchilikning eti junjikib, badanini sovuq ter bosdi. Muzeyning bu bo‘lmalarida o‘sha mash’um qatag‘on kunlarining sovuq nafasini sezganday bo‘ldik. Ayniqsa, 1912-yilda qurilib, 1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘oloni ishtirokchilari sudgacha hibsda saqlangan, xalq orasida Qizil armiyachilar turmasi nomi bilan mashhur bo‘lgan qamoqxonadan keltirilgan tarixiy eshik o‘tmishga ochilgan vaqt qopqasiday taassurot qoldiradi. Mahkumlarni otuv jarayoni mulyaj va rekvizitlar yordamida aks etgan bo‘lib, audio vositalar bilan boyitilgan.

Qolaversa, surgun qilingan huquqshunoslarning ayanchli taqdiri ko‘rsatilgan KarLAGdagi mehnat lageri, Mirzo Qo‘qonboy Abduxoliqovning Jizzax qo‘zg‘oloni ishtirokchilari ustidan bo‘lgan sudda ko‘rsatgan jasorati, o‘zbek zamonaviy huquqshunosligining asoschilaridan biri Muhammadjon Mo‘minov va uning rafiqasi Diloro Yusupovalarning tergov jarayonidagi uchrashuvi, O‘zbekiston Bosh prokuraturasining mas’ul rahbarlaridan biri, keyinchalik, Oliy sud raisi bo‘lgan Sa’dulla Po‘latxo‘jayevning sudi ham zamonaviy audio-video vositalar bilan jonlantirilgan.

Zamonaviy muzeychilik vositalaridan keng va samarali foydalanilgani kishini o‘sha davr muhitiga olib kiradi va qatag‘onga uchragan prokuratura xodimlarining achchiq qismatini, mardonavor kurashini, ular boshdan kechirgan og‘ir kunlarni chuqurroq his etishga imkon beradi. Bu imkonni muzeyning nodir eksponatlaridan biri bo‘lgan “qora qarg‘a” nomi bilan mashhur tarixiy avtomobil yanada yaqqolroq namoyish etadi.

“Oyna” installyasiyasi esa qatag‘on yillaridagi jamiyat qiyofasini aks ettirgan. Umuman olganda, bu yerdagi har bir detal tarixning achchiq kunlaridan hikoya qiladi. Oyog‘ingiz ostidagi zax qamoqxona muhitini ifoda etadigan beton pol, boshingiz ustidagi temir panjara, uning tepasida nohaq qamalgan mahbuslar ruhini yanchib o‘tayotgan harbiy etiklar...

Muzeydan og‘ir taassurot bilan bilan tashqari chiqdik. Mustaqillik ne’mati o‘z-o‘zidan kelmagani, bu yo‘lda ne-ne ko‘ngil ko‘zi ochiq, fikri teran vatandoshlarimiz shirin jonini qurbon qilganini yana bir bor yurakdan o‘tkazdik. Vatan tarixiga daxldorlik tuyg‘usi qalbimizni qoplab, birdan angladikki, yurakni bugunning o‘tkinchi tashvishlaridan tarixiy og‘riq tozalar ekan.

**Musulmon NAMOZ,**
**Shavkat DO‘STMUHAMMAD**
*Abdumannon MUHAMMAD olgan suratlar.*



# O‘ZIMIZNI... O‘ZIMIZDAN QUTQARAYLIK!

Boshlanishi 1-sahifada.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda Yevropaning qaysidir bir shahrida tirband avtobusda kitob o‘qiyotgan bolakayning suvrati berildi. Qalb ko‘zi ochiq odamlar uchun, butun dunyoda Yaxshilik, Ezgulik, Odamiylik va Hayrat timsolida namoyon bo‘ldi u. Ha, biz shu ahvolga keldik: kitob o‘qiyotgan bolakayni ko‘rsak, hayratlanamiz... Aslida, bu fojia emasmi?

Ba’zida menga, “O‘zingiz ham hikoyalaringizni internetga joylaysiz-ku, qo‘ltelefon bo‘lmasa, sizning yozganlaringizni o‘qimasdik-ku”, deya izza qilmoqchi bo‘ladilar.

Men yozganlarimni kitob holida ham chiqarishim mumkin, faqat telefonga termilgan omma dunyoda adabiyot, yaxshilik va ezgulik degan narsalar ham borligini bilib tursin, hech bo‘lmasa, kimdir o‘qiydi-ku, degan fikrda internetga narsa joylayman. Aminmanki, bugun ijtimoiy tarmoqlarga qalb harorati sezilib turgan adabiy asarlar, she’r va maqolalar, tarjimalar joylayotgan ziyolilarimizda ham shunday fikr bor.

Kitobsizlik kasaliga yo‘liqqan jamiyatda odamlar ruhiy mohiyatini yo‘qotib qo‘ymasin, degan maqsadda internetdan minbar topgan adib-u shoir, tarjimon va jurnalistlar, olimlarimizga ta’zim qilaman. Xudoga shukr, ozmi-ko‘pmi bular ommani nurga yuzlantirishga urinmoqdalar va bunga umid qilmoqdalar... Bu o‘rinda barcha adabiy – ma’naviy saytlar, ma’rifiy tarmoqlarga tashakkur aytaman. O‘zim ko‘rib-bilib, o‘qib borayotgan zamondosh ziyolilarimizning xayrli ishlari, garchand, jaholat bo‘roniga qarshi qo‘lda shamchiroq ko‘tarib chiqqan darveshni eslatsa-da, uning nuri zulumotni yoritishiga ishonaman, agar ishonmasam, bu dunyoda ezgulik degan tushunchaning “e” harfi ham qolmaydi-ku, bunday dunyoda yashashning nima ma’nosi bor?!

Hamon kitob nashri yo‘lida ter to‘kayotgan, biri ikki bo‘lishi dargumon noshirlarimizga ta’zim qilaman. Moddiy jihatdan so‘li qurib, zo‘rg‘a nafas olayotgan bo‘lsa-da, davr zarbasidan o‘zini bazo‘r o‘nglab, oyoqda arang tik turgan nashriyotlarimiz, bu muhitda o‘zini ortiqchaday sezib, qimtinib turgan, qay bir eshiklar oldidan obunasi abgor holda bosh egib qaytayotgan gazeta-jurnallarimiz, ularning muharrir-u muxbirlari oldida bosh egaman. Iltimos, yiqilmanglar, sizlar taslim bo‘lsangiz, ko‘p narsa qo‘ldan ketadi. Ha, ko‘p narsa...

Kitoblar hech qachon hech kimga yuk bo‘lmaydi. Chunki kitobda dunyoning yuki, dunyoning mohiyati bor. Ular dunyoni qutqarib qolishi mumkin. “Dunyoni bolalarga beraylik, hech bo‘lmasa bir kungina bolalarga beraylik...”, degan aqida bilan ulg‘aygan katta avlod vakillari endilikda, bu tagdor tushunchaning mohiyati o‘zgarganini ham sezib turibmiz. Mayli, dunyoni bolalarga bermaylik, faqat qo‘limizdan keladigan ish, bolalarimizni telefon qaramligidan qutqaraylik. Buning uchun o‘zimiz qo‘limizga kitob olishimiz kerak, albatta...

Yana bir gap; ta’lim tizimining tepasida turganlar o‘ylab ko‘rishar, ehtimol, bolalar nashrlarini tekin qilish kerakdir, hech bo‘lmaganda, har bir sinfga bittadan o‘quvchilarning gazet-jurnali kirib borsa, muallim shu nashrlardagi she’r va hikoyalar, maqolalar yuzasidan ham uyga topshiriqlar bersa, balki bolalarimizda kitob o‘qish ko‘nikmasi shakllanarmidi... Axir o‘sha nashrlarda millat mafkurasi, qadriyatlarimiz, davlat siyosati mohiyati bolalarbop tilda aks ettiriladi. Har holda, bola bu dunyoda shunday o‘qiydigan narsalar ham borligini, dunyo faqat telefondan iborat emasligini anglarmidi, deyman-da.

Yana bir orzu, iltimos, kulmang, O‘zbekistonda bir kunni Kitob kuni deb belgilash kerakmikan. O‘sha kuni televideniye, radio, barcha saytlar ertalabdan kitob haqida gapirsa, ota-onalar, bobo-momolar uyiga farzandlar hamda nabiralar uchun kitob ko‘tarib kelsa, mayli, bozorto‘rvada sabzi-piyoz bilan birga bir donagina bolalar kitobi bo‘lsa! Amaldormi, hokimmi yo vazirmi, xullas, Prezident aytgandan keyingina o‘qigan maktabiga kitob sovg‘a qilganlarning (esingizdami) bari-barining qo‘lida hech bo‘lmasa o‘sha kun bittagina kitob bo‘lsa! Xullas, kitob kunini muqaddas bayramday o‘tkazsak...

Siz dunyoni qutqarishga urinmang, o‘zingizni o‘zingizdan, ya’ni, Insonni Insondan qutqarishni o‘rganing, shuning o‘zi yetadi. Shundagina siz dunyoni qutqarasiz. Nimadan deysizmi? Axloqsizlik, fahsh, yovuzlik, ochko‘zlik, hasad, xiyonat, sotqinlik, jamiki urushlardan... Dunyo joyida turibdi, lekin, bugun Inson ilohiy maqomi – insoniylikdan tobora mosuvo bo‘lib boryapti.

Yana bir gap. “Jadid” gazetasi chop etila boshlagan dastlabki oylarda har juma oqshomi “Madaniyat va ma’rifat” telekanali orqali unda chop etilgan dolzarb maqolalarning sharhi berilar edi. Ko‘pchilik shu ko‘rsatuvga o‘rgangan edi. Chunki jamiyatdagi og‘riqli muammolar ko‘tarilib, taniqli olim, adiblar munozaraga kirishardi. Negadir keyingi vaqtlarda ana shu ko‘rsatuv efirga berilmay qo‘ydi. Ana shu dasturni imkoni bo‘lsa, boshqacharoq, zamonaviyroq formatda qayta tiklash zarur. Aks holda, jiddiy matbuotda ko‘tarilayotgan masalalar tor doirada qolib ketaveradi.

Xullas, bosma so‘zning qadrini baland tutaylik, demoqchiman.

**Qo‘chqor NORQOBIL**

> **!** Microsoft hammuassisi va sobiq bosh direktori Bill Geyts hozirgi bolalar kabi smartfon va ijtimoiy tarmoqlarga chalg‘ib o‘sganida, katta ehtimol bilan milliarder bo‘la olmasligini ta’kidladi. Geytsning aytishicha, aynan bolaligida do‘stlari bilan sayr qilib, tashqi dunyoni kashf etishga, xonasida soatlab kitob o‘qish va chuqur mulohaza yuritishga sarflagan vaqtlari unga 3,26 trillion dollarlik kompaniyani tashkil etishda yordam bergan.

# BIZ HAM KITOB O‘QIYAPMIZ

**Qirq millionta samolyotni bust-butun holda yashirib qo‘yish mumkinmi? Davrimizda buning iloji yo‘q. Hatto, AQSh yo Xitoy kabi rivojlangan davlatlarning ham qo‘lidan kelmaydi. Ammo shunday voqea sodir bo‘lgan. 2016-yilda 40 millionta yo‘lovchi reysi o‘z manziliga xavfsiz qo‘nib, 10 ta reys halokatga uchragan. Ammo jurnalistlar faqat halokat tafsilotlarini qayta-qayta yoritgani uchun odamlarda har kuni aviahalokat yuz berayotganday tasavvur uyg‘ongan. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan parvozlar esa hech kimni qiziqtirmagan. Aslida dunyo biz o‘ylaganday yomon emas, hamma gap faqat bizga uzatilayotgan axborot oqimida u qanday ko‘rsatilayotganida. Buni Hans Roslingning “Factfulness”, ya’ni “Faktdorlik” kitobidan o‘qib bildim. Shunday, internetda o‘qimadim yoki televideniyeda ko‘rmadim, aynan kitobdan o‘qidim. Men o‘qiyapman...**



“Jadid” gazetasining shu yil 6-dekabrdagi sonida chop etilgan “Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” maqolasi meni ham ta’sirlantirdi. Nomidan ham ko‘rinyaptiki, maqola kitob o‘qishga da’vat ruhida emas, kitob o‘qilayotgani haqida yozilgan. Yozilganda ham jurnalistikamizda kamyob bo‘lib borayotgan, katta mehnat va hafsala talab qiladigan tahlil janrida bitilgan. Unda Yangi O‘zbekiston aholisining kitobxonlik darajasi, mamlakatdagi kutubxonalar va kitoblar soni, shuningdek, boshqa bir qator masalalar faktlar asosida ko‘rsatib berilgan.

Aslida ham bor gap shu. Bugun matbuot va internetda “yoshlar kitob o‘qimayapti” degan gap huda-behuda takrorlanaverib siyqasi chiqib ketdi, nazarimda. Yoshlarga ta’na qilayotganlarning o‘zi kitob do‘koniga kirib ko‘rganmi? Poytaxtda va viloyatlarda filiallari ishlab turgan “Book.uz” yoki “Asaxiy books” kitob do‘konlarini oling, kun-u tun gavjum. Onlayn buyurtmalar yetkazib berish xizmatini aytmaysizmi. Kitob o‘qiyotganlar bor ekanki, qator do‘konlar soat 9:00 dan 22:00 gacha ishlab turibdi. Poytaxtimizdagi Chorsu bozori yaqinidagi qator kitob rastalari biror kun xaridordan xoli bo‘lmaydi. Yangi kitoblar qolib, eski kitoblarning ham bozori yurishgan bugun.

Kitobxonlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi ham kun sayin ortib bormoqda. Facebook va Telegram tarmoqlarida yuz minglab foydalanuvchilar aynan mutolaaga bag‘ishlangan sahifalarga a’zo bo‘lgan. Misol uchun, “Kitobxonlar davrasi” (Facebook) guruhining 80 ming nafardan ortiq a’zosi bor. Bir kunda o‘rtacha 10 ta post qo‘yiladi, asosan taqrizlar. Postlarga layk bosish, izoh yozish va ulashish ko‘rsatkichi ham yuqori.

Xuddi shunday, bugun Telegram messenjerida o‘zbek tilida yuzga yaqin bukbloger kanal yuritmoqda. Bukblogerlar odatda o‘z taassurotlarini boshqalar bilan bo‘lishishni istovchi kitobxonlardir. Bunda o‘z blogida kitoblarga taqrizlar, tanqidlar, tavsiyalar yoki iqtiboslarni e’lon qilib boradi. Bunday bloglarning obunachilari soni ko‘paysa ko‘paymoqdaki, aslo kamaymayapti. Masalan, mashhur bloglar: “Kitoblar ombori” – 14 ming 500, “The Stranger” – 10 ming, “Bobil kutubxonasi” – 6 ming 500, “Panda Books” – 6 ming 300, “Mahin’s World” – 5 ming 600, “Stoik kutubxonasi” – 3 ming 800, “The Bookfather” – 2 ming 300 auditoriyaga ega.

Ta’kidlash kerakki, kitobxonlik guruhlari va sahifalaridagi ming kishi qaysidir artistning qachon ko‘zi yorishini, qayerda dam olishini, qanday libos kiyishini kuzatib o‘tiradigan o‘n ming, yuz ming kishidan afzal va kuchlidir.

Abdulla Qahhor o‘tgan asrda yozuvchining haqiqiy bahosi kutubxona daftarida bo‘ladi, deb yozgandi. Bugun bu ta’rif biroz o‘zgardi: kitob haqidagi o‘quvchi fikrini asosan ijtimoiy tarmoqlardagi kitobxonlik sahifalari va ularning izohlaridan izlash kerak, menimcha.

Kitobxonlar va kitoblar soni bilan birga kitobxonlik saviyasi ham ko‘tarilmoqda. Bir vaqtlar yengil-yelpi adabiyotlar urf bo‘lgandi. Bora-bora o‘quvchilarning o‘zi o‘sha asarlarni iste’moldan chiqarib yubordi. Nashriyotlar qayta chop etmadi.

Xullas, biz kitob o‘qiyapmiz. Shu ma’noda Ikrom Bo‘riboyevdan qimmatli ma’lumotlarni taqdim etgani uchun minnatdorman.

“Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” maqolasidan yon daftarchamga ko‘chirib olganlarim:

*“Respublikada jami 13 ming 46 ta axborot-kutubxona muassasalari mavjud. Ularda 43 million 493 ming 497 nomda jami 71 million 131 ming 175 ta kitob fondi bor”.*

*“Bugungi kunda Milliy kutubxonaning umumiy fondi 8 million 183 ming 235 nusxadan tashkil topgan”.*

*“Hozirgi vaqtda respublika bo‘yicha 9 ming 452 ta mahallaning 5 ming 226 tasida kutubxonalar tashkil etilgan. Bu ziyo maskanlarida 260 mingdan ortiq kitob bor”.*

*“Endi bor ma’lumotlar asosida xomaki hisob-kitob qiladigan bo‘lsak, ayni vaqtda mamlakatimiz kutubxonalarida 128 million 692 ming 867 ta kitob mavjud. Yana xorijdan kirib keladigan 21 tonnadan ortiq kitob mahsulotlari ham bor”.*

**Otabek BAKIROV,**
**O‘zJOKU talabasi**

# MUNOZARA VA MULOHAZA

**E’tiborli jihati, “Jadid” gazetasining o‘tgan sonida chop etilgan “Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” nomli tahliliy maqola jamoatchilik orasida katta qiziqish uyg‘otdi. Yurtimizda kitobxonlik darajasi aniq dalil va raqamlar asosida xolis va ishonarli ochib berilgan ushbu maqola yuzasidan turli fikr va mulohazalar bildirilmoqda.**

Kuni kecha O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bir guruh ijodkor va olimlar, talabalar hamda jamoatchilik vakillari ishtirokida ana shu mavzu muhokamasiga bag‘ishlab tashkil qilingan davra suhbatida keyingi yillarda O‘zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilib, bu yo‘nalishda bir qancha salmoqli loyihalar amalga oshirilayotgani natijasida xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida kitobga qiziqish sezilarli darajada kuchaygani alohida qayd etildi.

Xususan, taniqli adabiyotshunos, professor Aftondil Erkinov “Hamma o‘qiyapti. O‘qing!” maqolasida ko‘tarilgan mavzu haqida fikr yuritib, yurtimizda kitob o‘qishni ommalashtirishga mo‘ljallangan xayrli tashabbuslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda joylarda oilaviy kutubxonalarni ko‘paytirish zarurligini alohida ta’kidladi.

– Bugungi shiddatli zamonda yoshlar ongini turli xil zararli illatlardan asrash uchun, eng avvalo, ular orasida kitobxonlikni rivojlantirishimiz, jaholatga qarshi ma’rifat tamoyiliga suyanishimiz kerak. Masalan, biz keyingi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda “#Navoiy_day”, “#Bobur_day”, “#Navr.uz_day” kabi xeshteglar uyushtirish orqali ulug‘ ajdodlarimiz va milliy bayramlarimizni dunyo miqyosida targ‘ib qilgan edik. Natijada o‘sha kunlarda internetning qidiruv bo‘limiga xorijiy kontentlardan “Navoiy kim?”, “Bobur kim?” kabi juda ko‘p so‘rovlar kelib tushdi. Bu esa jadid bobolarimiz singari ma’rifat targ‘ibotida barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishimiz kerakligidan dalolat beradi, – deydi O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori M.Komilov.

Shu kuni O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi va “Jadid” gazetasi tahririyati hamkorligida har oyda kitobxonlik kechalarini tashkil qilib, milliy va jahon adabiyoti namunalarining taqdimotlarini o‘tkazish hamda atoqli adiblarimizning ijodini targ‘ib qilishda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish haqida kelishib olindi.

**N.HABIBULLAYEVA**

ONAJONIM – TABIAT

# “CHANG VA G‘UBOR BO‘LMASA...”

**Nabotot dunyosining inson hayotidagi ahamiyati qanchalik muhimligi barchamizga yaxshi ayon. Ko‘kka bo‘y cho‘zib turgan salobatli dov-daraxtlar, ko‘kalamzor joylar ko‘zni yashnatishi bilan birga, havo musaffoligini ham ta’minlaydi. Yashayotgan makonni yashillikka burkash, bog‘-u bo‘stonlar barpo etish inson hayotiga mazmun bag‘ishlaydi.**

**Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash hamda iqlim o‘zgarishlariga milliy yechim sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda, desak yanglishmaymiz.**

“Yashil makon” umummilliy loyihasi BMT Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha Parij bitimi doirasida 2030-yilgacha uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekiston Respublikasi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha chora va harakatlarni kuchaytirish borasida olgan xalqaro majburiyatning amaliy yechimidir.

Darhaqiqat, bugungi global iqlim o‘zgarishlari sharoitida azaliy an’ana va qadriyatlarimiz asosida yashillikni ko‘paytirish, daraxt va buta ko‘chatlarini ekish orqaligina kelajak avlodga musaffo tabiatni yetkazishimiz mumkin.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish va respublikada 444 ta yashil bog‘lar barpo etish belgilanganligi bejiz emas. Zero, yashil olam – musaffo tabiat demakdir. Tabiiy drenaj vazifasini o‘taydigan ko‘p yillik daraxtlarning ekilishi hududdagi mikroiqlimni yumshatadi. Ayniqsa, shaharlarda va avtomobil yo‘llari chetida yashil hududlarni kengaytirish atmosferaga tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorini kamaytiradi. Borliqni yashillikka burkash aholi salomatligini saqlashning asosiy omillaridan biridir. Shuningdek, u global iqlim o‘zgarishlarining oldini olishdagi milliy yechim hisoblanishi bilan ahamiyatlidir.

Sirasini aytganda, so‘nggi yillarda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar keng quloch yoydi. Chunki katta yo‘llar bo‘yiga o‘n qatordan daraxt ekish tashabbusi jiddiy hayotiy ahamiyatga ega. Kelajakda bu daraxtlar shovqinni yutish barobarida, mashinalardan chiqayotgan zaharli gazlarni ham tozalab beradi. Daraxtning shu kabi xususiyatlari, uning tabiatdagi o‘rni qanchalik muhim ekanini tushungan odam ushbu loyihaning ahamiyatini yurak-yurakdan his qiladi.

**Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisobotiga ko‘ra, so‘nggi 30 yil mobaynida yer yuzasining 77,6 foizi quruqlashgan. Yer va suvdan oqilona foydalanmaslik muammoni yanada og‘irlashtiradi. Buning oqibatida, qariyb 3 milliard aholi va jahonda oziq-ovqat ishlab chiqarishning yarmidan ko‘pi suv tizimlariga tushayotgan mislsiz yuklamadan aziyat chekmoqda.**






**Sayyora qizib boryapti, 2024-yilda iqlim bo‘yicha antirekord yangilanadi. Iqlim o‘zgarishi insoniyatni halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, birgina issiqdan har yili yarim million kishi halok bo‘ladi, jahon iqtisodiyoti esa trillionlab zarar ko‘radi.**

Shunday ekan, milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizga sodiqlik timsoli sifatida mamlakatimiz hududini bog‘-u bo‘stonga aylantirishga yo‘naltirilgan “Yangi makon” loyihasi doirasida daraxt ekish tadbirlarida faol ishtirok etish orqali Yangi O‘zbekistonning “yashil” taraqqiyoti uchun hissa qo‘shish barchamizning fuqarolik burchimizdir. Ushbu umummilliy tashabbus shaharlarimiz, mahallalarimizga fayz bag‘ishlash bilan birga, yurtimiz iqlimini mo‘tadil saqlashga, pirovardida tabiatni asrash, aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Buyuk bobomiz Ibn Sino bir paytlar “Agar chang va achchiq g‘ubor bo‘lmasa, inson ming yil yashaydi”, deb lutf etgan edi. Bu umrzoq tolega faqat va faqat tabiatni ko‘kalam, o‘z tabiatimizni ko‘rkam qilish bilangina erishiladi.

**Xayrullo G‘AFFOROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi raisi**

MULOHAZA

# QADRIYATLARIMIZ QADRI SO‘NMASIN

**Tasavvur qiling: uyingizga ancha vaqtdan buyon ko‘rmagan qarindoshingiz yoki do‘stingiz keldi. Qo‘ng‘iroq qilgani yoki “boraman”, deb ogohlantirgani ham yo‘q. Dabdurustdan eshik qoqdi. Iltifot bilan kutib olasiz, hol-ahvol so‘raysiz. O‘z navbatida u ham. Suhbat asnosida mehmonga razm solasiz, uning kayfiyatini bilishga urinasiz. Ichingizda o‘ylaysiz: “Nega keldi? Biror iltimosi bormi? Tinchlikmikan, ishqilib?” Choy uzatasiz, gurungni davom ettirasiz-u, mehmonning og‘zini poylaysiz.**

**Ma’lum vaqt o‘tgach, mehmon turishga ruxsat so‘raydi. Ko‘chagacha kuzatib chiqasiz. “Uyda aytishga tortindi. Tashqarida aytsa kerak dardini”, degan xayolga borasiz. Mehmon xayrlashmoq uchun qo‘l uzatadi. Miyangizda aylanayotgan o‘y-xayollarni uqqan kabi mayin jilmayib deydi: “Shu tomonga yo‘lim tushgan edi. Sizni bir ko‘rib o‘tay, anchadan beri ko‘rmadim, deb kirdim”. Hayron bo‘lasiz. Shunday beta’ma yo‘qlash ham mumkinmi?**



Negadir bunday beg‘araz tashrifdan ajablanadigan bo‘lib qoldik. Nega? Ishimiz ko‘pmi? Ha, ko‘p. Vaqtimiz yo‘qmi? Shunisiga shoshilmaymiz. Ochig‘i, vaqtim yo‘q, deb o‘zimizni o‘zimiz aldaymiz. Agar vaqtdan unumli, aql bilan foydalansak, hamma narsaga ulguramiz. Holbuki, qancha-qancha vaqtimiz bekor ketadi, havoga sovuriladi. Telefonda kerakli-keraksiz gaplar bilan suhbat qurishlarga, barchani ohanrabo kabi o‘ziga jalb etgan internetda maza-bemaza narsalarga termilib o‘tirishga ozmuncha vaqtimiz ketadimi?!

Aslida, vaqtimiz emas, hafsalamiz yo‘q. Odamgarchilikni, mehr-oqibatni, demak, milliy qadriyatlarimizni unutib yuborayotgandaymiz. Yangi-yangi imkoniyatlar, sharoitlar yaratilgan sari azaliy milliy urf-odatlarimizni “esimizdan chiqarib” qo‘ymoqdamiz. Ilgari odamlar bir-biridan xabar olish, suhbatlashib kelish uchun poyi-piyoda, nari borsa, ot-eshakda borgan. Chunki mehr-oqibat yuksak qadriyat sifatida qadrlangan, qarindoshlik rishtalarini mahkam ushlashga katta e’tibor berilgan. Bugun aksariyatimizda mashina bor, shunga qaramay qarindosh-urug‘lar, oshna-og‘aynilar oldiga borib, yarim soat bo‘lsa-da, diydorlashib kelishga hafsala qilmaymiz.

Hafsalasizlik, go‘yoki vaqtni “qizg‘anish” oqibatida qarindosh-urug‘lar, jigarlar o‘rtasida silayi rahm susayib borayotir. Faqat biron-bir sabab tufayli – to‘ymi, tug‘ilgan kunmi, Alloh asrasin, ta’ziyami – ko‘rishishga o‘rganib qolayotganga o‘xshaymiz.

Endi masalaning boshqa tomoniga nazar tashlaylik. O‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloq yoki shahardan boshqa joyda yashayotganlar uchun bu ishlar yanada murakkabroq. Ularning tez-tez borib turishi uchun “masofa uzoq” degan “qo‘shimcha” bahonasi ham bor.

Tug‘ilib o‘sgan manzilidan olisda yashaydiganlarda bitta muammo borki, undan ko‘z yuma olmaymiz. Ular o‘zining qishlog‘i yoxud shahriga ko‘pincha bir kunga, nari borsa, ikki kunga keladi. Bu muddatda, tabiiyki, barcha qarindoshlarini, oshna-og‘aynilarini ko‘rishga ulgurmaydi. “Keyingi gal ko‘rarman ularni”, deb shoshib qaytib ketadi. Keyingi safar ham shu ahvol takrorlanadi. Shunday qilib, ayrim qarindoshlar va yor-u do‘stlarni yillab ko‘rmaydi. Bunaqa holat, o‘ylaymanki, ko‘pchilik uchun tanish. Jumladan, kamina ham mustasno emas.

Yashirmayman, bir-ikki marta noqulay ahvolga tushib qolganman. Qishlog‘imizda qandaydir tadbir bo‘lganida uch-to‘rt yosh yigitlarni tanimay, yonimdagi katta yoshlilardan, bular kim, deb so‘raganman. Ular “Iye, tanimayapsizmi? Anavi falonchi opangizning nevarasi, unisi pistonchi opangizning nevarasi”, deb kulishgan. Bu ham yetmaganday “Qishloqqa tez-tez kelib turish kerak-da”, degan. Rosa izza bo‘lganman.

Bu narsa menga qattiq ta’sir qilgandi. “Ahvol shu tarzda davom etaversa, uch-to‘rtta o‘zim qatorilardan boshqani tanimay, begonalashib ketishimiz hech gap emas-ku. Bu yoshlar mendan iymanib, tortinib o‘zini bir chekkaga olsa, men o‘zim yaxshi biladiganlar bilan gurungdan bo‘shamasam... Bunaqada qarindoshlik aloqalarimiz uzilib ketishi aniq. Biron-bir chorasini ko‘rish kerak... Mehr ko‘zda degan naql bor”.

...Joriy yilning bahorida “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida bir necha iqtidorli ijodkorlar bilan birgalikda Samarqand viloyatidagi qator oliy o‘quv yurtlari va ularga biriktirilgan maktablarda uchrashuvlar o‘tkazdik, ko‘chat ekdik. Talabalar va o‘quvchilar bilan bo‘lgan emin-erkin suhbatlar, savol-javoblar, gulxan atrofidagi gurunglar g‘oyat maroqli, esda qolarli bo‘lganini alohida ta’kidlamoqchiman. Shu suhbatlarda mehr-oqibat, ahil-inoqlik, hamjihatlik xususida ham fikrlar bildirildi.

Davrada yoshlarning fikrlarini tinglab o‘tirarkanman, o‘zim ham shular to‘g‘risida gapirdim, miyamda bir savol ta’na-dashnom kabi aylanaverdi: “Xo‘sh, bu borada o‘zing nima qilding, nima qilyapsan? Akalaring, opalaring farzandlaridan xabar olib turibsanmi? To‘rt opangdan uchtasi va yagona singling o‘tdi bu olamdan. Birgina opang qoldi. U bilan talashib-tortishib katta bo‘lgansan, bir sinfda o‘qigansan. Shu opangdan oyda necha marta hol-ahvol so‘raysan? Loaqal telefonda bo‘lsa ham?” Bu achchiq savollarga jo‘yali javob yo‘q...

Tadbirlar tugagandan keyin sheriklarimni kuzatib, o‘zim Samarqandda qoldim. Katta jiyanlarimga o‘ylagan taklifimni aytdim.

– Shanba kuni kechqurun hamma qarindoshlarni to‘planglar, – dedim. – Shaharda ishlaydigan-u yashaydiganlar ham kelsin. Bir piyola choy ustida gurung qilamiz.

Ularga ham bu taklif ma’qul tushdi.

May oyining o‘rtalari. Katta akamning to‘ng‘ich o‘g‘lining uyiga, ishonasizmi, qirqqa yaqin odam yig‘ildi. Safarda bo‘lgan, uzrli sabab bilan kelolmaganlari qancha. Ochig‘ini aytsam, shularning uchdan birini deyarli yaxshi tanimayman. Ko‘pini bolaligida ko‘rganman yoki umuman ko‘rmaganman. Yonimda o‘tirganlardan tanimaganlarimni so‘rab oldim.

Uyalib, iymanib boshlangan suhbat asta-sekin avjiga chiqdi, qizg‘in gurungga aylandi. Bu dunyodan o‘tgan ota-onalarimiz, akalarimiz, opalarimiz, amaki-yu tog‘alarimiz, amma-xolalarimiz, pochchalarimiz, ularning yaxshi amallari yodga olindi. Kim kim bilan qanaqa hazillashgani bormi, uy qurish, kuzda tom suvash, uzum uzish kabi ishlardagi hasharlar, shu jarayonlardagi hazil-huzullar-u hangomalarni eslab miriqib kuldik.

Armiyada, paxta terim paytidagi hangomalar yodga tushdi. G‘iybatdan, oldi-qochdi, maza-bemaza gaplardan xoli samimiy, dilkash gurung hammaning qulfi dilini ochdi. Yoshi ulug‘lar yoshlarga o‘z tajribalari haqida gapirdi, pand-nasihat qildi. Yoshlar turli mavzularda savollar berdi, biz kattalar bilganimizcha tushuntirdik. Soat tungi o‘n ikkidan oshdiki, hech kimning turgisi kelmaydi.

Gurungdan maza qilib o‘tirar ekanman, o‘ylardim: “Bu ham “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida o‘tayotgan tadbirlarning bir ko‘rinishi, amaliy natijasi emasmi? Mohiyat bir xil. Ayniqsa, gulxan atrofidagi gurungga juda o‘xshab ketdi, o‘rtada gulxan yo‘q, xolos!”

Suhbat so‘ngida “Bu ishimiz juda zo‘r bo‘ldi. Hammamiz miriqdik, mazza qildik. Ma’rifiy suhbat bo‘ldi. Endi buni davom ettirishimiz kerak”, degan taklif bildirildi. Birov har oyda qilaylik, dedi, kimdir uch oyda, dedi. Oxiri mendan so‘rashdi: “Siz nima deysiz?”

– Avvalo, mening taklifimga rozi bo‘lib, jamlanganlaring uchun hammangizga katta rahmat. Ko‘rdilaringki, bu ishimiz barchamiz uchun foydali bo‘ldi. Diydorlashdik, miriqib gaplashdik, o‘tganlarni esladik, eng muhimi, har birimiz o‘zimiz uchun nimadir oldik, – dedim. – Endi bu o‘tirishimizni davom ettirish borasidagi taklifga kelsak, buni qo‘llab-quvvatlayman. Faqat masalaga real qaraylik. Har oyda yig‘ilish oson emas. Shuning uchun, agar hammaga ma’qul bo‘lsa, yilda ikki marta, ya’ni, bugungiday may oyida va kuzning boshlanishi, sentyabr oyida yig‘ilsak... Hovlida, ochiq havoda bemalol yayrab o‘tirish mumkin.

Barcha qarindoshlar bu fikrni ma’qulladi.

Hamma tarqagach, biroz hovli aylandim. Garchi, vaqt tungi soat birdan oshgan bo‘lsa-da, charchoq sezmasdim, aksincha, kayfiyatim ko‘tarinki, o‘zimni ancha yengil his qilardim...

Kelishuvimizga binoan sentyabrda yana to‘plandik. Bu gal ayollar ham keldi. Biz o‘g‘illarim, nevaralarim, kelinim bilan bordik. Oldingidan ham ko‘p odam yig‘ildi. Avval qabristonga borib, ota-onam, akalarim, opalarim, amaki-yu tog‘alarim – bu dunyodan o‘tgan barcha hesh-aqrabolarimiz qabrini ziyorat etib, ularning haqiga Qur’on tilovat qildik. Kichkina nevaralarimga ular haqida gapirib berdim...

Oqshom xuddi avvalgidek, juda maroqli suhbat bo‘ldi. Yana yarim tungacha davom etdi. Sentyabr tuning salqinligi ham sezilmadi.

**Mamatqul HAZRATQULOV**

Boshlanishi 1-sahifada.

Ammo men hamon osmonlarda yurardim. Qaysi institutga hujjat topshirmay, albatta, kiraman, degan ishonchda edim. Tarix fanidan besh, adabiyotdan besh, ingliz tilidan to'rt bahoga topshirdim, lekin ovzgi imtihon – inshodan ikki baho oldim. Shunda men uchun hammasi barbod bo'ldi.

Nazarimda, menga oliy ta'lim dargohlarining eshiklari yopiqday tuyuldi. Kayfiyatim tushib ketdi, yuragim bo'm-bo'sh. O'zimni layoqatsiz, keraksiz bir kimsadek his qila boshladim...

Tushkun kayfiyatda Marks va Engelsning o'rindiqda o'tirgan holdagi haykali o'rnatilgan xiyobon bo'ylab ketib borarkanman, shundoq ro'paramdan kelayotgan nihoyatda tanish chehrali kishiga ko'zim tushdi. Chingiz Aytmatov!.. Tushimmi, o'ngimmi?! Yolg'iz o'zi! Chap bilagiga kostyumini solib olgan. Boshini quyi eggancha xayol surib kelardi. Men bo'lsam – ozg'in, novcha, qora yuzlarini husnbuzar bosgan yigitcha uning qarshisida haykaldek qotib turardim. (Darvoqe, aytish kerakki, Chingiz og'a ham mening yoshimda ozg'in va novcha, burni katta, yuzini husnbuzar bosgan o'smir bo'lgan. Bu haqda men keyinchalik uning xotini Kerez yanganing xotiralarida o'qiganman).

Aytmatov yerdan ko'z uzmay, chuqur xayolga botgan holda, hatto bir marta ham qarab qo'ymay yonginamdan o'tib ketdi. Unga: "Assalomu alaykum, Chingiz og'a!" deyishga kuchim ham, irodam ham, nafasim ham yetmay, og'zimni ochgancha qarab qolaverdim. Axir, umrimda birinchi marta tirik Chingiz Aytmatovning o'zini ko'rib turardimda... Tilim kalimaga kelmas, vujudim muzga aylangandek edi go'yo. Shunday qilib, Aytmatov yonginamdan o'tib ketdi. Men yerga qoqilgan qoziqday turib qolaverdim. Xayolimda, u hozir ortiga qayriladi-yu, menga qaraydi. Shu taxlit turdim-turdim-da, keyin o'z-o'zidan uning ortidan ergashdim. Izma-iz keta boshladim. Talaba yigit-qizlar nari-beri o'tib turishibdi. Hammalari Chingiz og'aga havas bilan qarashar, ko'tarinki kayfiyatda salomlashishardi. U salomlarga alik olar va yo'lida davom etardi...

U Eski maydondan o'tdi. Men o'n besh qadamcha masofada unga ergashib boryapman. Nega bunday qilyapman, o'zimam bilmayman. Ixtiyorim o'zimda emasday. Agar men ham anovi talabalarga o'xshab salom bersam, salomimga alik olarmidi, deb o'ylayman. Afsuski, "mening poyezdim ketib qoldi". Aytmatov kulrang binoning katta eshigidan ichkariga kirdi. Eshikdagi yozuvni o'qidim: "Qirg'iziston SSR Madaniyat vazirligi".

Negadir bu yerdan ketgim kelmay atrofda aylanishib turdim. Agar qaytib chiqsa, u bilan holahvol so'rashish uchun o'zimni tayyorlay boshladim. Lekin mening Chingizim qaytib chiqmadi. U yerda juda uzoq qolib ketdi.

Bu kun men uchun juda muhim kun edi...

Men kitoblarini yutoqib o'qiydigan sevimli yozuvchimni ko'rgan edim. O'sha kuni na VGIKdagi, na tarix fakultetidagi ko'ngilsizliklar yodimda qoldi. Shu kuni mening orzum ushaldi, o'qish haqidagi orzularim sarobga aylangan esada, men qadrdon qishlog'imga baland ruh bilan qaytdim. Axir men, kimsan – Aytmatovni ko'rgan edim-da!..

1975-yilning yozida Chingiz Aytmatovni ilk marotaba shu tariqa ko'rgan edim...

**...2008-yil. 11-iyun. Chingiz Aytmatov bilan so'nggi uchrashuvim...**

Chingiz Aytmatovning jasadini maxsus samolyotda "Manas" aeroportiga olib kelishdi. Men Xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovning dafn marosimini tashkil etadigan Davlat komissiyasi a'zosi edim. (O'sha vaqtda Qirg'iz Respublikasi madaniyat vaziri edim.) O'sha vaqt, o'sha daqiqa, o'sha soniyalarda ko'nglimga hech narsa sig'masdi. Yuragim qayg'u bilan limmo-lim to'lgan, bo'lak narsaga o'rin yo'q edi.

Samolyotning ulkan yukxonasi ochilib, qizil yog'ochdan yasalgan tobut ko'rindi. Yuragim titrab ketdi. Mening mahoratli ustozim, Aytmatovim mana shu qizil yog'ochdan qilingan tobutda olib kelindi...

O'sha, hozir orqasiga o'giriladi-yu, menga qaraydi, degan ilinjda Aytmatovga ergashgan ozg'in, bo'ychan, yuzlariga husnbuzar toshgan yigitlik davrimni esladim...

Birinchi marta ko'rishganimizda "Assalomu alaykum, Chingiz og'a!" deyolmaganimdek, so'nggi uchrashuvimizda ham nima deyishni bilmay qoldim, na yerda, na ko'kdaman, o'zimni qo'yarga joy topolmayman.

Shu kuni butun koinotim, butun dunyom, bor hayotim... shu qizil daraxtdan yasalgan tobutning ichida yotardi go'yo.

**AYTMATOV...**
**ATA-BEYIT[1]...**
**MADAT SADIRQULOV...**

2008-yil 10-iyun... Bizning Aytmatovimiz dunyoni tark etgan kun...

...Ko'p yillardan beri yuragimda saqlagan, ko'pchilikka noayon bo'lgan bir haqiqatni aytmoqchiman. Tarix uchun bu haqiqatni ommaga oshkor qilish u kishi xotirasi oldidagi burchim, deb o'ylayman.

Aytmatovdek ulug' inson nomi bilan bog'liq hamma narsa, jumladan, esdaliklar, ma'lumotlar, havolalar va dalillar tarixga aylanadi...

Bu kun mening qalbimda abadiy saqlanadi...

*10.06.08...*

* * *

...Biz Aytmatov bilan so'nggi marta Chongariq qishlog'ida, Bayimbet Murataliyev og'aning uylarida o'tirgan edik. O'shanda oqsoqollarimiz Omorbay Norbekov va Dovlotbek Shadibekov biz bilan birga edi. O'sha vaqtda rossiyalik kinochilar So'qo'lo'q yonginasida yozuvchining yubileyiga bag'ishlangan hujjatli filmni tasvirga tushirishayotgan edi. Tasvirga olish jarayoni bilan band bo'lgani uchun Aytmatov bizning uchrashuvimizga salkam bir soat kechikib keldi. U kirib kelishi bilan hammamizning ko'nglimiz birdan ko'tarilib, xona ham yorishib ketgandek bo'ldi. Men Chingiz og'aning o'ng tomonida o'tirdim. Buyuk odamning buyukligi eng kichik tafsilotlarda ham o'zini ko'rsatadi-da. Dunyoga mashhur yozuvchi xonaga kirib kelishi bilanoq kechikkani, kutdirib qo'ygani uchun hammamizdan uzr so'radi. "Meni bunaqa kutishning hojati yo'q edi. Boshlashingiz kerak edi, Madaniyat vaziri..." – dedi u menga qarab.

O'shanda Chingiz og'ani kutishning ham o'ziga xos zavqi borligini his qildik.

Bu insonsiz tomoqdan hatto suv ham o'tmasdi. Shunda bizda yilning boshida nishonlashga kelishib olganimiz – yozuvchining yubileyini nishonlash bilan bog'liq masalalar bo'yicha fikr almashish imkoniyati tug'ildi. Bafurja o'tirib, barcha tadbirlar to'g'risida maslahatlashib oldik. Chingiz og'aning tashrifi bilan u o'tirgan faxrli joy go'yoki olamning markaziga aylangandek edi biz uchun. Joy odamni emas, odam joyni tabarruk etarkan-da.

Yuz-ko'zlarimizda unga bo'lgan hurmat, ehtirom aks etar, qalbimiz esa faxr-iftixor-la limmo-lim edi.

Maroqli va mazmunli suhbat uzoq vaqt davom etdi...

Bir mahal men uning nimadandir bezovta bo'layotgani, lekin aytishning imkonini topolmayotganini sezdim.

Ko'p o'tmasdan Chingiz og'a men tomonga sal egilib qulog'imga shivirladi: "Sulton, sizlarni shuncha kuttirib qo'yganimdan keyin yana vaqtli ketsam noqulay bo'lmasmikan, nima deysan?" U shu kuni Olmaotaga uchishi kerak ekan. Men bu haqda Beyimbet amakining (Chingiz og'aning Shakar qishlog'idan kelgan qarindoshlaridan biri) qulog'iga shivirlab xabar berdim: "Chingiz og'a tez ketishi kerak ekan, u juda shoshilyapti". Beyimbet amaki shu zahoti ishga kirishdi: sara noz-ne'matlarni dasturxonga tortilishini tezlashtirdi va yakuniy so'zni Aytmatovga berdi.

[1]Ata-Beyit majmuasi 1938-yilda Stalin qatag'onlari davrida qatl qilingan 138 qirg'izistonlik dafn etilgan joy.

# CHINGIZ AYTMATOV



Bu ajoyib inson o'rnidan turib, yig'ilganlarning barchasiga hurmat bajo keltirib, so'zini boshladi. O'shanda u juda o'tkir fikrlar bildirdi. Nafaqat o'zi bilan bir dasturxon atrofida o'tirgan sanoqli odamlarga, balki butun olam ahliga murojaat qilayotgandek edi go'yo. U har birimizning qalbimizdan joy olgan o'y-xayollarimiz haqida gapirardi. Har bir so'zi muhim va serma'no edi. Umumjahon ahamiyatiga molik so'zlarni barcha odamlar, yonginasida o'tirgan insonlar taqdiriga bog'lab gapirardi. Buyuklarda soddalik bor... Yig'ilganlarni duo qilgan Aytmatov yo'lga chiqdi. Ketishidan oldin hamma yig'ilganlar Aytmatov bilan suratga tushishdi... Biz uning yonida tik turib, qo'lini ushlab, qalbimiz g'ururga limmo-lim bo'lib rasmga tushdik.

Chingiz Aytmatov Olmaotada to'rt-besh kunlik shoshilinch ishlari borligini, so'ngra esa Qozonga uchishi lozimligini aytdi.

Birga suratga tushdik.

O'sha vaqtda Chingiz Aytmatov bilan tushgan bu suratimiz so'nggisi bo'lishini bilmagan edik...

* * *

Yomon xabar olamga tarqaldi, butun dunyo uning vafotidan qayg'uga cho'mdi...

Shu kuni erta tongda meni Madat Sadirqulov (Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari) huzuriga chorladi. Bu qayg'uli xabardan hammamiz tushkun ahvolda edik. Men Madat Sadirqulovning xonasiga kirdim. "Kiraver, qadrdonim", degan so'zlar bilan kutib oldi u meni. (Oldin faqat meni shunday iliq kutib oladi, deb o'ylardim, keyin bilsam u hamma xodimlarga shunday murojaat qilarkan. Qizig'i, boshqalar ham menga nisbatan shunday samimiy munosabatda bo'ladi, deb o'ylarkan.) Madat Sadirqulov g'amgin va sarosimada edi, bu mo'ylovi asabiy qimirlashidan sezilib turardi. Menga qo'li bilan stulni ko'rsatib o'tirishga taklif qildi. Bir muddat jimlikdan so'ng:

– Eshitdingmi? – dedi.

– Eshitdim, – deya bosh irg'adim.

– Biz og'amizni yo'qotdik, – dedi qovog'i uyilgan Madat Sadirqulov. – Nima ham qilardik. Endi biz uni mangu makoniga munosib ravishda kuzatishimiz zarur. Birikki kunning ichida jasadini olib kelishadi... – Madat Sadirqulov odatiga ko'ra o'rindig'idan turib deraza oldiga bordi. – Bizning Chingizimiz... Ammo uni qayerga dafn qilamiz? – dedi u menga tikilib.

Chingiz Aytmatovning o'limiga haligacha ishona olmaganim uchun bunday gaplar unga nisbatan aytilishi noo'rindek tuyuldi. Bir narsa deyolmay kalovlandim... javobimni kutmasdan Sadirqulov so'zida davom etdi.

– Albatta... Ala-Archa... – dedi u. – Lekin aniq qayerga ekanligini hozir o'zim ham aytolmayman. Senga bir kun muhlat beraman. Ertaga ertalab taklif bilan oldimga kel.

Madat Sadirqulovning gapi miyamga chaqmoqdek urildi.

– O'yla, o'yla, azizim, – dedi u.

Xonadan chiqishim bilan u orqamdan qo'ng'iroq qildi:

– Ilgiz amaki, Roza opa, o'g'illariga hozircha hech narsa aytmagin. Bir qarorga kelganimizdan keyin ularga o'zimiz xabar beramiz.

Kun bo'yi shu haqda o'yladim, tuni bilan shu xayol menga orom bermadi. Chingiz Aymatovning kitobini qo'limga olib ayrim parchalarini qayta o'qishga harakat qildim. Shunda ko'zim "Somon yo'li" qissasining epigrafiga tushdi:

*"Ota, sening qayerga dafn etilganligingni ham bilolmayman...*
*Ushbu asarimni, otam To'raqul Aytmatov, senga bag'ishlayman..."*

Shu satrlarni o'qir ekanman, "Topdim!" deb o'yladim. Madat Sadirqulov doim takliflarimni asoslab berishimni talab qilardi. Taklifim uchun bildirmoqchi bo'lgan barcha dalillarni miyamda pishira boshladim.

Birinchi dalil – ushbu epigraf bo'lsa, ikkinchisi To'raqul otaning dafn joyi – Ata-Beyit ekanligi, bir vaqtlar Chingiz Aytmatov "Ata-Beyit"ni otam panoh topgan so'nggi makon, deb ataganidir. Bu yerda uzviy bog'liqlik bor... Xalqda o'g'lining jasadini otasi yotgan yerga qo'yish joiz, degan fikr bor. Bu gap teran ma'noga ega.

Madat Sadirqulov har doim masala yechimi bitta emas, bir nechta variantda bo'lishini talab qiladi. Men ikkinchi variantni ham topib qo'ydim. Bu – Sovetskaya, Oxunboboyev va Jantosheva ko'chalarining kesishmasidagi istirohat bog'i edi. Bu yer shaharning markazida bo'lib, unda ko'plab yoshlar tez-tez dam oladigan bog' bor ekanligi mening dalilim edi. Uning atrofida Tibbiyot akademiyasi, Milliy konservatoriya, Sport akademiyasi va Bibisora Beyshenaliyeva nomidagi Madaniyat universiteti joylashgan. Lekin qalbimda Ata-Beyitga moyillik ko'proq edi. Ertasi kuni ertalab Madat Sadirqulov kabinetiga yetib bordim.

– Xo'sh, takliflar bormi? – so'radi u. Men tuni bo'yi o'ylab chiqqan barcha variantlarimni dalillari bilan uning oldiga qo'ydim. Marat Cho'qonovich jimgina turdi... Odati bo'yicha, bir qo'lini shimining cho'ntagiga solib, o'ylanib qoldi.

– Ata-Beyit... Yaxshi fikr... – dedi u o'ychanlik bilan. U mahoratli rahbar edi. Ikkinchi taklif haqida bir og'iz ham gapirmadi.

– Bu taklifni Birinchiga yetkazaman. Javob qanday bo'larkin?.. Kutib tur... – dedi u gapni qisqa qilib.

Men kabinetdan chiqdim.

"Biz Chingiz Aytmatovdan ayrildik" degan fikrga hamon ko'nikolmayotgandim. Kun bo'yi Madat Sadirqulovning qo'ng'irog'ini kutdim...

Kechga borib taklifimni qabul qilishmadi, shekilli, deya o'ylay boshladim.

Soat 21.13 da – bu daqiqalar haliyam aniq yodimda – Madat Sadirqulov qo'ng'iroq qildi.

– Birinchi tasdiqladi. Ertaga ertalab Ata-Beyitga bor, uni qayerga dafn qilishimizni aniqla. Tushdan keyin biz ham boramiz, joyni yana bir bor ko'ramiz, – dedi u.

Shu tariqa biz uni otasi To'raqul Aytmatovning jasadi qo'yilgan, o'zi Ata-Beyit deb atagan joyga dafn qildik. Biz uni ham qirg'iz xalqining buyuk insonlari yotgan joyga qo'ydik.

Ularning bir yerda qo'nim topishlari taqdirlariga bitilgan edi...

**USTOZ**

Olmaotadagi Muxtor Avezov uy-muzeyi kiraverishida ilingan taxtachaga Chingiz Aytmatovning "Mening ikkita milliy ziyoratgohim bor, ularni qalbimga jo qilib xorijiy mamlakatlarga sayohat qilaman, o'zga xalqlar ostonasidan o'taman. Bular – "Manas" va Muxtor Avezov. Bular mening xalqlarimning timsollaridir", degan so'zlari yozilgan. Har safar bu uy-muzeyga borganimda, ulug' adibning shu so'zlari yuragimni g'ururga to'ldiradi.

Ustozga hurmat Chingizning ulug' fazilatlaridan biri edi. "Ustoz" tushunchasi azaldan milliy madaniyatimizda ko'prik vazifasini o'tagan. Shu bilan birga, ustozning qadr-qimmati, ulug'ligi shogirdining murabbiydan o'rganganlari bilan baholanadi. Bu azaliy an'ana. Bizning Chingiz Aytmatovimiz "Manas" bilan yashadi, undan ma'naviy oziq oldi, "Manas" uning uchun oltin aso bo'ldi. U "Manas"da yashadi, butun umrini unga bag'ishladi.

Aytmatov bunday ulug' fazilatni ustozi Muxtor Avezovdan meros qilib olgan. Nafaqat "Manas", balki butun qirg'iz xalqiga og'ir bo'lgan davrlarda Muxtor Avezov o'zi qozoq bo'lsa-da, bizning buyuk eposimizni himoya qilib, qirg'iz xalqiga beqiyos xizmat ko'rsatgan. Aynan o'sha davrda oramizda ko'plab xoin, ko'rnamak tanqidchilar paydo bo'lib, "Manas" dostoniga loy chaplab, uning "xalq tarbiyasiga zarari" haqida gapirganlar. Nafaqat doston, balki Aytmatovning o'zi ham ta'qib qilina boshlanganida, bu bahslarga, janjallarga aralashib, uning himoyasi uchun tog'day turib bergan ham aynan shu Muxtor Avezov edi. Aslida, u bu muammolarga aralashishga shunchalar burchlimidi?

Ustoz – tushunchasi Sharq xalqlarining umummilliy qadriyatidir. Jumladan, qirg'iz xalqi ham ustoz atrofida kamol topgan, ustoz unga ta'lim, ijod, taraqqiyot yo'lini ko'rsatgan. Ustoz-shogirdlik an'anasi qirg'izlarning haqiqiy xalqona akademiyasidir. Chingiz og'aning buyukligi – ustozlari merosini asrab-avaylash, ularning ma'naviy dunyosini har qanday g'arazli xurujlardan asrashdadir. U ustozlarining ma'naviy boyliklarini keyingi izdoshlariga yetkazdi. Aytmatov buyuk Aytmatovga aylanishining sirlaridan biri ham shundadir...

Buyuk kitobda shunday deyilgan: Agar o'z ustozing bo'lmasa, bilki, Shayton sening ustozingga aylanadi...

Qirg'izlarning ulug' (abadiy) ustozlari bor: Manas va Chingiz.

**AYTMATOV VA BURGUT...**

Chingiz To'raqulovich Yevropadagi elchixonadan Bishkekka qaytganidan so'ng, endigina birikki kun o'tgandi. Birdan eshigim keskin ochilib, xonamga kotibam kirib keldi. Qattiq hayajonda. Shu sababmi, entikkancha eshik oldida bir zum turib qoldi.

– Sulton Akimovich, Chingiz Aytmatov keldi, – dedi nihoyat o'zini bosib olib. Kotibamning hayajoni menga o'tdi, o'rnimdan sakrab turdim-da, eshik tomon yugurdim. Eshikni ochib qabulxonada Chingiz Aytmatovni ko'rdim. Uning qabulxonamda kutib turganidan dovdirab qoldim. Keyinroq kotibamdan: "Nega uni darhol xonamga olib kirmading?" – deb so'radim.

Kotibaning aytishicha, Chingiz Aytmatov qabulxonaga kirishi bilanoq unga: "Ish bilan band odamni chalg'itishning hojati yo'q, qizim, sen borib, men kelganimni ayt", – degan ekan.

Chingiz Aytmatov bilan iliq ko'rishib, xonaga kirdik. Ulug' adib avval sog'lig'im, ishlarim haqida so'rab, devorga osilgan suratlarni tomosha qila boshladi va ko'zga ko'rinadigan joyga ilingan o'z suratini ko'rib: "U davrlar ancha yosh edim", deb qo'ydi.

– Tashqi ishlar vazirligidan kelayotib, bir vaqtning o'zida ikki ishni hal qilib, Madaniyat vaziriga ham borganim ma'qul, deb o'ylab, yoningga keldim, – dedi u.

Chingiz Aytmatov uzoqdan, Yevropadan yaqinda keldi. Men uning lavozimidan chetlatilishini adolatsizlik deb hisoblardim. Chingiz Aytmatovning Yevropada bo'lishining o'zi ko'p masalalarni hal qilishi mumkin edi. Yevropada uning hurmati yuqori ekanligiga shaxsan o'zim ko'p bora guvoh bo'lganman.

– Aytgancha, men sening romaning mutolaasini nihoyat yakunlayapman, uni o'qishga ancha vaqt qo'lim tegmay yurgandi. Oldingda xijolatdaman... Yozuvchining hayoti o'zingga ma'lum – xayolingga birorta fikr yoki yangi g'oya kelib qolsa, bas, o'zingni ham unutasan, – dedi Chingiz Aytmatov piyoladagi choydan ho'plar ekan. Chindan ham, unga romanimning ("Jazo" romani) qo'lyozmasini berganimga ikki yildan ziyod vaqt o'tdi. Ammo Chingiz Aytmatovning nafaqat romanni o'qib chiqishi, balki faqat qo'liga olganining o'zi ham menga faxr va ilhom baxsh etdi. – Ozgina qoldi... Agar hammasi shunday davom etgan bo'lsa, yaxshi roman chiqishi mumkin. Bilasanmi, yozuvchi bor kuch-g'ayratini asarning yakuniga sarflaydi, hatto butun asar faqat uning intihosi uchun, final uchun yoziladi, – dedi u kulimsirab.

Chingiz og'a ko'zimga ancha horg'in ko'rindi. Ehtimol, uning kayfiyatsizligiga ishdan ketgani sabab bo'lishi ham mumkin, balki menga shunday tuyulgandir. Uning yuz-ko'zidan kayfiyati pastligi, ichki dunyosi qorong'iligi ko'rinib turardi. U nimadandir g'amgin, tushkun holatda edi. Balki, rostdan ham ishi yuzasidandir. Lekin unga bu haqda gap ochishga jur'atim yetmasdi.

Bundan ancha oldin – 2004-yilda yozuvchi mening ko'plab savollarimga batafsil javob bergan edi. Keyinchalik yozuvchi bilan bo'lgan mazkur suhbat nashr etildi. (Chingiz Aytmatov taklifi bilan "Olamni ishq yaratgan, muhabbat esa mangu" nomi bilan 8 jildlik to'plamga ham kiritildi).

"Dunyoning qaysi burchagida bo'lishimizdan qat'i nazar, ertami-



kechmi, tug'ilib o'sgan joyimizga qaytamiz. Inson kindigi kesilgan joy haqida ko'p gapirishi bejiz emas. Mening ham kindik qonim to'kilgan zamin xayolimdan ketmaydi", – degandi u o'sha suhbatimizda. O'shanda men unga tilimning uchida turgan yana bir savolimni bera olmadim.

Chingiz Aytmatov bilan uzoq vaqt suhbatlashdik. "Mayli, madaniyat vaziri, men boray. Qabulxonada kutib turganlar ko'p bo'lsa kerak", dedi va o'rnidan turdi. "Boshqa gaplar qolmadi, shekilli? Menimcha, hamma narsa haqida gurunglashdik", dedi xayrlashayotib.

"Boshqa gaplar" nima ekanligini ikki kundan keyin tushundim. Tashqi ishlar vazirligiga tashrifi chog'ida Chingiz Aytmatovga TURKSOY bosh kotibi lavozimini taklif etishganidan ancha keyin xabar topdim.

Kabinetdan chiqsak, haqiqatan ham qabulxonada besh-olti kishi kutib turgan ekan. Ulug' adib hamma bilan ko'rishib, so'rashib chiqdi. Binodan chiqdik-da, madaniyat vazirligi binosidan Chuy shohko'chasigacha birga bordik. "Balki manzilingizga mashinada olib borib qo'yarman", desam, u taklifimni rad etib, "Piyoda yurishni juda sog'inganman", dedi. Uning shu oddiygina so'zlarida chuqur ma'no borligini qalban anglab turardim. U ona yurtini sog'ingan edi. Uning ko'chalarida yakka-yolg'iz yurishni sog'ingan edi.

Har doim Chingiz Aytmatov suhbatlaridan hayratga tushardim. Rostini aytsam, anchadan buyon qalbimda unga bermoqchi bo'lgan pinhona savolim bor edi. O'sha vaqtda shu savolni berish vaqti yetgandek tuyuldi va so'rashga qaror qildim.

– Men anchadan beri sizga bir savol bermoqchi bo'lib yuribman, – dedim. Og'a yurishdan to'xtadi va menga qarab:

– So'rang, – dedi.

– Siz turli axborot manbalari va gazetalarda yozilayotgan maqolalarni o'qiyapsizmi? – deb so'radim. U javob berishdan oldin og'ir bir xo'rsindi-da, agar o'zi o'qimagan taqdirda ham tanishlari ular haqida muntazam xabar yetkazib turishganini aytdi.

Men o'sha vaqtlar tez-tez chop etilayotgan Chingiz Aytmatov haqidagi kamsituvchi, unga nisbatan ig'vo-tuhmat bilan to'la bo'lgan maqolalarni nazarda tutgandim.

Ayrim yozuvchilar, gazetalar, sariq matbuot vakillari uning "Jamila"sidan boshlab shaxsiy hayoti va boshqa narsalarni kovlashib, ulug' adib nomiga soya solishi mumkin bo'lgan maqolalarni, xabarlarni bera boshlagandi.

– Nega bu tuhmatchilarga munosib javob bermaysiz, axir bu holatga jim qarab turish mumkin emas-ku! – dedim men. Aytmatov chuqur xo'rsindi. Joyida turib qoldi, nazarimda, hozir u yerga chilparchin bo'lib sochilgudek edi. Xayolimda oyog'im ostidagi zamin ikkiga bo'lingandek bo'ldi.

U men tomonga keskin o'girildi, joyida to'xtadi va:

– Sulton, ayting-chi, agar men samoda baland parvoz qilayotgan burgut bo'lsam, umrida botqoq, loydan boshqa hech narsani ko'rmagan, vaqillab yotgan qurbaqa bilan biror e'tibor qaratishimga arziydimi?.. Yaratgan burgut haqida ham, qurbaqa haqida ham hammasini biladi. Haqiqat qayerda ekanligini biladi. Yaratgan adolatni biladi. Ular bilan bahslashish shart emas, – dedi. Uning bu purma'no so'zlari hali-hanuz qulog'im ostida jaranglaydi.

Bergan savolimdan o'zim xijolat tortgan bo'lsam-da, Chingiz Aytmatovning javobi men uchun hayotiy saboq bo'ldi. "Ehtimol, bunaqa o'tkir fikrni eshitish uchun shu og'ir savolni berishim noto'g'ri bo'lmagandir", degan ojizona fikr xayolimdan o'tdi.

– Mayli, sen qol, men uzoqroqqa boraman, – dedi Chingiz Aytmatov va o'z yo'lida davom etdi.

Orqasidan qaradim, uning bo'y-basti uzoqlarga singib keta boshladi. Endi biz uning o'sha bo'y-bastini qayta ko'rishni orzu qilamiz...

**AYTMATOV VA SEVGI NAFASI...**

2004-yil...

Kechqurun men mashinada uning Olaarchadagi uyiga borishim to'g'risida Chingiz To'raqulovich bilan kelishib oldik. Anchadan beri Chingiz Aytmatov bilan adabiyot, ma'naviyat, siyosat, til va ijod haqida suhbatlashishni istab yurardim.

Olis yurtdagi elchixonada faoliyat yuritayotgan va qisqa muddatga vataniga keladigan Chingiz Aytmatov bilan uchrashish, suhbatlashish oson ish emasdi. Lekin, Xudoga shukrki, bir kuni menga qo'ng'iroq qilib kechqurun kelishimni aytdi. Bu taklifdan keyin o'sha kun men uchun, uning ta'biri bilan aytganda: "Asrga tatigulik kun" bo'ldi. Kun botishini intiqlik bilan kutdim. Men uchun ulug' yozuvchi bilan uchrashish va suhbatlashishdan qimmatliroq narsa yo'q edi. "Ikkisi birda" deganlaridek, ushbu uchrashuvda buyuk inson bilan suhbatlashish, ya'ni intervyu olish imkoni tug'ilishini his qildim. Biz uchrashsak, agar uning roziligini olosam, qator savollarga javob berishi mumkin bo'ladi, deb umid qildim. U vaqtda "Ozodlik" radiosida faoliyat yuritardim va bu suhbat radio uchun bebaho topilma bo'lardi. Axir, Chingiz Aytmatov har kimga ham intervyu beravermasdi. Va bu niyatim ham amalga oshdi...

Shu kuni men ataylab bu uchrashuv haqida birga ishlaydigan Yorqin opa Temirbayevnadan suyunchi oldim, unga "Bugun Chingiz Aytmatov meni uyiga taklif qildi", dedim. (Joyi jannatda bo'lsin! O'tgan yili opa olamdan o'tdi. Juda yaxshi, qalbi toza ayol edi). Nimaga ham bu uchrashuv haqida unga aytdim-a, Yorqin opa meniyam birga olib ket, deb kanaday yopishib oldi-ku. Bunaqa holatda opaga gap tushuntirib bo'lmaydi, u menga tinchlik bermay qo'ydi. Nihoyat rozi bo'ldim. Yorqin opaning fe'li ayon – kutilmaganda o'rinli-o'rinsiz savollar berish odati bor. Shu bois, uning birga borishiga bitta shart bilan rozi bo'ldim: "Savolni men beraman, siz jimgina mikrofonni ushlab turasiz, iltimos..." Bu shartga opa tezgina rozi bo'ldi. U Chingiz Aytmatov bilan uchrashuvga olib borishimning o'zidan mamnun edi, shuning uchun "shartlarim"ga ko'ndi.

Kechqurun Chingiz Aytmatovning uyi oldida ko'rishishga kelishdik. Kechki soat yettida kelishilgan joyga yetib keldim. Lekin Yorqin opa ko'rinmasdi. Shu turishda opani 20 daqiqacha poylab turdim. Nihoyat kichkina qizchasini yetaklab olgan Yorqin opa harsillab yetib keldi. Bu holatni ko'rib nima deyishni bilmay qoldim. "Nega qizchangizni olib keldingiz", deb so'rasammikan, degan fikr ko'nglimga kelishi bilanoq, Yorqin opa xuddi fikrimni uqqandek, "Qizim uchun Chingiz og'aning duosini olishni niyat qilgandim", deya meni shashtimdan tushirdi.

Shunday qilib uchalamiz Chingiz og'aning uyiga kirdik. "Salom, Sulton, ishlaring yaxshimi? Bu singlim bilan esa tanish emasmiz, shekilli", dedi bizni ko'rib u. Men opani tanishtirdim: "Bu Yorqin opa, "Ozodlik" radiosida birga ishlaymiz". Yorqin opaning qizchasiga diqqat bilan qaragan Chingiz og'a mendan so'radi: "Bu kichkina farishtacha – sening qizingmi?", "Yo'q, Chingiz og'a, bu mening qizim. Sizning yoningizga kelayotganimni aytishim bilan yopishib oldi, qoldirib kelolmadim", dedi opa shosha-pisha. Keyin mening ko'zlarimdan "Yana eldan burun gapga aralashdingizmi?" degan ma'noni uqib, menga aybdorona termuldi. Shu vaqtda Chingiz og'aning "Bola – bu farishta" degan so'zi vaziyatni ancha yumshatdi. Buni eshitgan Yorqin opa: "Chingiz og'a, siz hozir qizimni duo qilsangiz, u hech qachon unutmaydi, doimo eslab, xursand bo'lib yuradi", dedi gul-gul yashnab.

Shunday qilib, Chingiz Aytmatov bilan yarim tungacha suhbatlashdik. U keng-mo'l tikilgan uy kiyimida edi. Chingiz og'a savollarimga shoshmasdan javob qaytardi. Biz u bilan zamonaviylik, globallashuv, adabiyot, vijdon, daholik, zolimlik va boshqa mavzularda uzoq suhbatlashdik. (Keyinchalik bu suhbatimiz "Olamni ishq yaratgan, muhabbat esa mangu" nomi bilan Chingiz Aytmatovning 8 jildlik to'plamiga intervyu sifatida kiritilgan).

Choy ichdik, dasturxon ne'matlaridan totindik. Soat millari tungi o'n ikkiga yaqinlashdi. "Chingiz og'a, siz bilan suratga tushsak maylimi?" – deb so'radi Yorqin opa. Chingiz Aytmatov rozi bo'ldi, e'tirozimizga qaramay kiyimini almashtirgani boshqa xonaga chiqib ketdi. Men Yorqin opaga soatni ko'rsatib shivirladim: "Boshqa kun rasmga tushsak ham bo'lar edi", dedim.

Shu orada kostyum kiyib, galstuk bog'lagan Chingiz og'a kirib keldi. Biz suratga tushdik. Opa yozuvchidan qizini duo qilishini iltimos qildi. Chingiz og'a unga yaxshi niyatlar bildirdi. Endi uydan chiqmoqchi bo'lib turgan joyimizda Yorqin opa: "Sizga yana bitta savol bersam maylimi?" deb qoldi. "Mayli, so'rang..." Shunda tushunganday opamiz: "Chingiz og'a, siz, menimcha, Bibisorani sevganchalik hech bir ayolga ko'ngil qo'ymaganga o'xshaysiz-a", deb qolsa bo'ladimi!..

Bunaqa savolni kutmagan Chingiz og'a hayajondan bir qalqib, tirsagi bilan stolga suyandi. Men bo'lsam ang-tang bo'lib, adibning yonida tosh qotib turardim. Tilim kalimaga kelmasdi, chunki qo'shni xonada Chingiz Aytmatovning turmush o'rtog'i bor edi.

Chingiz og'a o'rindiqqa o'tirib og'ir xo'rsindi va qisqa, ammo o'ta qat'iy qilib: "Ha, shunday", dedi.

Bu og'ir xo'rsinishda men faqat Chingiz Aytmatovgagina xos buyuk muhabbatning so'nmas qudratini, sog'inch, g'am-anduh, baxt, qayg'u, afsus-nadomat va quvonchni his qildim. Bu xo'rsinishda abadiyat ovozini tuydim, chunki faqat boqiy xotiragina bizni biz istagan manzilga, firdavs bog'lariga, biz sevgan insonlarimiz yoniga boshlab ketadi...

Bu xo'rsinish hali-hamon qulog'im ostidan ketmaydi...

Bu xo'rsinish buyuk Insoniy sevgining nafasi edi...

**Dilfuza Qarshiboyeva tarjimasi**

**12-DEKABR – HAMID OLIMJON TAVALLUD TOPGAN KUN**

# O'ZBEKISTON



Hamid OLIMJON

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda...
Chappor urib gullagan bog'in,
O'par edim vatan tuprog'in.
Odamlardan tinglab hikoya
O'sar edi shoirda g'oya.
Daryolardan kuylab o'tardim,
Ertaklarga quloq tutardim.
Hammasini tinglardim, ammo,
O'xshashini topmasdim aslo.

O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston, –
O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.
Chiroylidir go'yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin;
Qorli tog'lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofda yoyganda gilam,
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.
Tog'lardagi qip-qizil lola
Bo'lib go'yo yoqut piyola,
Buloqlardan uzatadi suv,
El ko'zidan qochadi uyqu.
Dalalarda boshlanadi ish,
Boshlanadi ijod va turmush.
Kundan-kunga o'sadi paxta,
Barg chiqadi xar bir daraxtda,
Olmazorlar gulin to'kadi,
Meva bog'lab shoxin bukadi.
Shaharlarda ishga chiqib el,
Odam bilan to'lar Tekstil.

Hammasining bir istagi bor,
Hammasi ham xursand, baxtiyor.
Bu o'lkada har narsa bordir,
Ko'rmaganlar doim xumordir.
Amu bilan Sirdan suv ichgan,
Zarafshonni loylatib kechgan
Chavandozlar bordir bu elda.
Bahor chog'i pishqirgan selda
Arg'umoqlar qo'shig'i bordir, –
Bu shundayin ajib diyordir.
Dalasida o'smas tikanlar,
Cho'llarida chopmas ilonlar;
Qush uchganda kuymas qanoti,
Odam o'tsa qurimas zoti;
Chanqov qolib yo'lovchi o'lmas,
Har burchakda boshkesar bo'lmas.
Kulbalarni kelib bosmas qum,
Go'daklarni yutmas och o'lim.
Odamga baxt va tole yordir, –
Bu shundayin ajib diyordir.

Bunda bulbul kitob o'qiydi,
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,
Bunda ari keltiradi bol,
Bunda qushlar topadi iqbol,
Bunda qorning taglarida qish.
Bahor uchun so'ylaydi olqish.
Bir o'lkaki, husnga boydir,
Buning eng zo'r ko'zgusi oydir;
Bir parcha o't bo'lib bunda kun
Paxtasiga ishlaydi har kun.
Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g'azal yozadi,
Kuychilari o'qiydi yalla.

Juvonlari aytadi alla,
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon, –
Bu shundayin ajib diyordir.

Shunday o'lka doim bor bo'lsin,
Shunday o'lka elga yor bo'lsin.
Omon bo'lsin og'aynilari,
Omon bo'lsin do'stlarning bari.
Doim bo'lsin Vatanim omon,
Shunday bo'lsin bu butun jahon.

Shaftolizor bog'larni ko'rdim,
Gul ko'kargan tog'larni ko'rdim,
Mehr qo'yib o'pgan sari oq,
Oppoq bo'ldi bu aziz tuproq.

Vodiylarni yayov kezganda,
Bir ajib his bor edi manda...



**MUTOLAA**




**Shunday asarlar, kitoblar borki, hatto bir o'qishda uni to'liq anglab bo'lmaydi. Qo'lga olib uni qayta-qayta o'qir ekansiz yangidan yangi ma'no kelib chiqaveradi. Buni o'qirmanlar yuraklari to'lqinlanib ta'kid etadi.**

# DIL TUBIDAN CHIQQAN BITIKLAR

Shu kabi kitobxonlar ko'ngliga kirib, allaqachon ularning qalb ohanglariga hamohang bo'lishga ulgurgan asarlar sirasiga Orziqul Ergash muallifligidagi roman, qissa, hikoya va badialarni ham kiritishimiz mumkin. Yaqinda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilgan Orziqul Ergashning "Tanlangan asarlar"i to'plami kitob ixlosmandlarini juda-juda mamnun etdi.

Kitobdan joy olgan "Shohsanam" romani – visolsiz muhabbat to'g'risida. Bu borada adabiyotimizda ko'plab asarlar yaratilganiga qaramasdan ushbu romanning sevib o'qilishiga asosiy sabab ko'pchilikda uchraydigan odamlarning qismatini o'ziga xos yo'sinda tasvirlanganidir. Muallif romanida muayyan jamiyatimizda yashayotgan odam hayotini aks ettirish bilan birga, o'ziga xos va betakror shaxsiyat egalarining ruhiyat olami manzarasini chizishga ham alohida e'tibor qaratgan.

Kitobdan o'rin olgan to'rt qissadan biri bo'lmish "Yulduzsiz osmon" ifoda jozibadorligi jihatidan o'qirman ko'nglidan o'zgacha o'rin oladi. Ushbu asarida ham muallif o'zi yaxshi ko'rgan va puxta o'rgangan bosh qahramonning xayoliy suhbati usulidan foydalanadi. Qissa voqealarida Ikkinchi jahon urushi davridagi odamlar hayoti aks etgan bo'lib, romantik tabiatli o'smir qiz – Mohiraning qaysidir frontda jang qilayotgan seviklisi – Jo'ra bilan xayoliy suhbatlari tasvirlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimanki, to'plam haqida yuqorida keltirilgan bizning sayozgina fikrlarimiz undagi asarlarning barini o'zida jam etolmadi. Yaxshisi, badiiy ozuqa olish maqsadida bu to'plamni o'zingiz bir o'qib ko'ring. Shunda yozuvchining ijod olami bilan yanada yaqinroq tanishish imkoniyatini qo'lga kiritasiz, aziz kitobxon.

**Abduvosit ABDURAHIMOV**
**O'zMU talabasi**

**YANGI TOMOSHA**

# SAHNADA MILLAT OYDINLARI

**Ayni kunlarda Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri sahnasida "Jadidlar" ("Millat oydinlari") deb nomlangan spektakl namoyishi bo'lib o'tmoqda. Mazkur sahna asari o'tgan asrning boshlarida Turkiston ozodligi uchun kurashning oldingi saflarida turgan Abdulhamid Cho'lpon, Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi millat oydinlarining hurriyat yo'lida chekkan zahmat va mashaqqatlarini yoritib berishga bag'ishlangan.**



Bu millatparvar insonlarni mamlakatda jiddiy o'zgarishlar qilish, xalqning ma'rifatini oshirish, oddiy kishilarni dunyoviy ilm-u fandagi o'zgarishlardan xabardor qilish yo'lidagi xatti-harakatlar o'zaro birlashtiradi. Bir millatdan bo'lgan ayrim kishilarning zehniyatida daqqiyunusdan qolgan tushunchalar hukmron bo'lgan davr asardagi qarama-qarshiliklarni kuchaytirgan. Zamonning notinchligi, Fitrat, Cho'lpon va Abdulla Qodiriy kabi ziyolilarning otuvga hukm qilinishi kabi sahnalar tomosha ta'sirchanligini hamda haqiqiy vatanparvar insonlarga nisbatan hurmat hissini oshirishga xizmat qiladi.

"Jadidlar" ("Millat oydinlari") asari To'ra Mirzo va Doston Haqberdiyev tomonidan yozilgan bo'lib, unga Olimjon Komiljonov musiqa bastalagan. Asarni rejissyor Doston Haqberdiyev sahnalashtirgan. Sahnalashtiruvchi rassom – O.Namozov, liboslar rassomi – M.Choriyorov.

Spektaklda asosiy rollarni teatrning tajribali va yosh aktyorlari Aziz Latipov (Avloniy), Tohir Rahimov (Fitrat), Umid Shodmonov (Munavvar qori), Hamid To'xtayev (Ibrat), Qobil Umirov (Cho'lpon), Iqbol Oshiqov (Qodiriy), Ravshan Ibrohimov (Hamza) va boshqalar ijro etgan.

**O'z muxbirimiz.**

Boshlanishi 1-sahifada.

## Matnazar ABDULHAKIM:

# OGOHLAR OGOHI




Men ham bu borada Omon Matjon hazratlaridan o‘tkazib bir gap ayta olmayman. Biroq boshqa bir masalani o‘ylab ko‘rish kerak, deb o‘ylayman. Sho‘ro davrida ko‘pgina mumtoz shoirlarimizga yopishtirilgan “saroy shoiri” degan yorliq Ogahiy bobomizni ham chetlab o‘tmagan.

Har tuzum, har bir saltanat zamonasidagi ijodkorlarning o‘ziga xizmat qilishlarini istaydi va bu tabiiy istakning bir qarashda hech bir yomon tomoni yo‘qday. “Bir qarashda” deyishim boisi shundaki, gap istakning qandayligida. Hozirgi davrda kuzatilayotganidek, davlat hokimiyati ijodiy jarayonning tabiiy kechishini ta’minlashni o‘z vazifasi deb bilsa, nur ustiga nur, lekin sho‘rolar tuzumi adabiyotning, hatto mafkuraga ham emas, mafkurabozlikka xizmat qilishini istadi. Bu talab hatto mumtoz adabiyot oldiga ham qo‘yildi. Oqibat shu bo‘ldiki, oq qora deb talqin qilindi, musulmon kofir deb.

Bunday ishtutim, bunday soxtakorlik sho‘rolar tuzumini ichdan yemirib, uning tanazzulga yuz tutishiga olib kelgan asosiy sabablardan biri bo‘ldi. Adabiyotga “Uni yoz, buni yoz!” deb musht o‘qtalmaslik kerak edi, undan ham battari, bobolarimizning mumtoz asarlarini teskari talqin qilishga olimlarimizni majburlamaslik lozim edi. Adabiyot katta ma’noda olib qaraganda o‘z ishini bilib qiladi. Unga ko‘rsatma emas, unga madad kerak.

*Ey ko‘ngil, odam xayol aylab dema*
*nodonga so‘z,*
*Chunki ul inson emas, topsang degil*
*insonga so‘z.*

Yana bir masala mumtoz she’riyatimizning turkiy va forsiyda baravar rivoj topgani haqida. Fors she’riyati azaldan ahli basharni o‘zining “ko‘lami” bilan hayratga solib keladi. Bunga Gyotening “Sharq-u G‘arb devoni”yu, Sergey Yeseninning “Fors taronalari” dalil. Griboyedov forsiy tilda g‘azallar yozgan. Mirzo Abdulqodir Bedil ijodi esa forsiy she’riyat turkiy o‘lkalarni naqadar maftun qilganligiga dalil... Bu endi hududiy ko‘lam faqat jug‘rofiy bo‘lib qolmasdan, davrlar jihatidan ham “yangi va yangi, xilma-xil” bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Shayx Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud... va nihoyat, Shermuhammad Munis, Ogahiy, Rojiy, Komil Xorazmiy, Ahmad Tabibiy... Davrimizga yaqinlashgan sari adabiyotimizning forsiy qatlami tobora yupqa tortib keladi. O‘tgan asrning yigirmanchi yillariga kelib tamomila ko‘zdan yo‘qoladi. Hozir bu beqarorlikning ijtimoiy-siyosiy sabablari to‘g‘risida fikr yuritishning mavridi emas. Ma’naviy-ma’rifiy sabablardan biri esa Temur va temuriyzodalarning umumturkiy ildizlariga qattiqroq, tobora teranroq intilganliklarida bo‘ldi. Alisher Navoiy hazratlari esa bu jarayonning bayroqdori edi. Ul zoti sharifning bemisl katta merosi, “Muhokamat-ul lug‘atayn” singari ilmiy-nazariy risolasi...

Xorazm ham muttasil mana shu jarayon og‘ushida bo‘ldi. Mana shu quyunlarning girdobida charx urdi. Bu shamol bizga yaqin davrlarda, o‘tgan asrga kelib taqa-taq to‘xtab qoldi. Bu bizning qismatimizdir. Qismatning egasi esa Qassomi azaldir, ya’ni Allohdir. Biz bu yo‘nalishda “Tuxum oldin paydo bo‘lganmi, tovuqmi?” qabilidagi bema’ni bahslashuvdan o‘zimizni yiroq tutamiz.

Mazkur bobolarimiz qay darajada vatanparvar, to‘g‘rirog‘i, millatparvar bo‘lganliklarini yana bir sinoat orqali ta’kidlab o‘tay. Ushbu ijodkorlar mansub bo‘lgan tabaqa forsiydan tarjimalarga muhtoj emas edi. Ular u yoki bu darajada fors tilini bilar, forsiy asarlarni asliyatda o‘qir, shuning uchun tarjimalarga, takror aytaman, deyarli muhtoj emas edilar. Demak, forsiydan turkiyga bo‘lgan badiiy tarjimalarga oddiy xalq – turkiy tilli millatimizgina muhtoj edi. Bu azizlarning sa’yi-harakatlari o‘z xalqining, ya’ni forsiydan bexabar bo‘lgan o‘zbeklarning forsiy adabiyotdan bahramand bo‘lishlariga qaratilgan edi.

Ijodkor qaysi tilni yaxshi bilsa, shu tilda yaxshiroq yozadi. Shu tilni yaxshiroq tushunadi, shu tilni yaxshiroq ko‘radi, albatta. Ikki tilni ham barobar bilgani hollarida ijodkorlar o‘z ona tillarida ijod etganlar. Asarlar bitganlar. Zullisonaynlik, fikrimcha, bab-barobar bo‘lmaydi. Shoir albatta, dilga yaqinroq tili tomonga “og‘ib” ketadi. Menga, albatta, Shermuhammad Munisning ham, Ogahiyning ham, Rojiyning ham, Komil Xorazmiyning ham, avvalo, o‘zbek tilimizdagi manzumalari ma’qul. Ahmad Tabibiyning o‘zbekcha g‘azallarini qayta o‘qib taqqoslab ko‘rishim kerak. Ogahiynikidek tafakkur darajasi baland bo‘lmasa ham, Tabibiyning forsiysi birmuncha tabiiyroq. Ehtimol, forsiy-zabon bo‘lganligi uchun, balkim menga shunday tuyulgandir...

Xiva xonligida forsiy tilning turkiy til bilan barobar davlat tili maqomida bo‘lishi ilk o‘rta asrlardagi madaniy harakatning so‘nib borayotgan davomi edi. Qolaversa, adabiy jarayon hamisha ham davlat tili maqomi bilan hisoblashavermaydi. Xalq hamisha o‘zining ko‘nglidagi tilda gaplashadi, ijod qiladi, adabiyot yaratadi. Hali yaqin o‘tmishda ham bizda rus tili davlat tili maqomida edi. Biz o‘zbek tilida ijod qilishni to‘xtatmadik. Taqdir taqozosi bilan dil tili rus tili bo‘lganlar shu tilda asarlar yaratishdi. Farq shundaki, bizda rus tili ishtirokidagi zullisonaynlik fors tili ishtirokidagi zullisonaynlik singari rivojlanmadi. Chunki rus tili o‘z tabiatiga, an’analariga ko‘ra, o‘zbek tiliga fors tili darajasida yaqin emas. Shundan kelib chiqib, dadil aytish mumkinki, forsiy til ham Ogahiyning ko‘ngil tillaridan bo‘lgan va bu tilda u ana shu ehtiyojdan kelib chiqib ijod etgan. Zero, fors adabiyoti, xususan, fors she’riyati buyuk adabiyot, buyuk she’riyat bo‘lib qolaveradi. Bu jarayonda Ogahiy, Ogahiyning salaflari va vorislarining munosib hissasi borligidan biz cheksiz iftixor tuyamiz.

*Ey, shoh, karam aylar chog‘i*
*teng tut yamon-u yaxshini,*
*Kim mehr nuri teng tushar*
*vayron-u obod ustina.*

Navoiyxonlik, ogahiyxonlik tadbirlarida ishtirok etib turishimga to‘g‘ri keladi. Ba’zi bir masalalarda Navoiy yoki Ogahiy davri liboslarini boplab joyiga qo‘yishadi-yu, Alisher Navoiy yoki Muhammad Rizo Ogahiy davrining tafakkurini o‘zlashtirishga kelganda ish keskin chatoqlashib ketadi. Bu... kechirasiz, nima deyishni bilmayman, bu... deylik, skafandr kiyvolib kosmonavtlik da’vo qilishdek bir gap. Gap sallada emas, kallada ekanligini anglash vaqti yetdi allaqachonlar.

“Yaxshi yoza olmayotganligingni kechirish mumkin, biroq yaxshi yozishni istamaganingni kechirib bo‘lmaydi!” deb yozgan edi Abdulla Qahhor “Yoshlar bilan suhbat” kitobida. Shu iborani sal o‘zgartirib “Mumtoz adabiyotni tushunmayotganingni kechirish mumkin, biroq tushunishni istamayotganingni mutlaqo tushunib bo‘lmaydi”, deb bemalol aytsa bo‘ladi. Chunki u yoki bu buyuk siymoni tushunmaslik, ular yashab o‘tgan vaqtdan beri qancha asr o‘tgan bo‘lsa, shuncha asrni tushunmay qolish degan gap. Bunchalik bahaybat g‘aflatni ortmoqlab yashash ma’naviy jihatdan qattiq bukchayib yurish bilan barobar.

Raso bo‘lishimiz uchun tinimsiz, iloji boricha uzluksiz mutolaa qilishimiz kerak. Xalqimizning qancha foizi Ogahiy hazratlarini biladi-yu, qanchasi bilmaydi, bunaqa hisob-kitob statistikaga bo‘ysunmaydi. Ma’naviy jihatdan hayotiy muhim zaruratga aylanmasa, bu muammoning bartaraf bo‘lishi qiyin.

Har yili Ogahiy hazratlari tavallud sanasida u zoti oliy tavallud topgan qadim Xivaga vohada yashab ijod qilayotgan shoir, yozuvchilar bir kunlik ziyoratga borishi an’anaga aylangan. Ya’ni, biz yilda bir bora Ogahiyni yodga olamiz, xolos. Undayam shoshib, ko‘pincha rasmiyatchilik uchungina. Biroq har yili adiblarning ziyoratga borishi Ogahiyning ruhini xalqimizdan umidvor qilib turadi. Shu ham katta gap. Ogahiyning qabrini yo‘qotib qo‘yayozishdek fojiani boshdan kechirgan xalqimizning jillaqursa yozuvchilari, hech bo‘lmasa, yilda bir marta ziyorat qila boshlabdimi, demak, ertaga barcha ziyolilar, indinga yetti yashardan yetmish yashargacha butun xalq oqib keladigan bo‘ladi. Bu ziyoratlar umumxalq mutolaa ziyoratiga aylanadi, inshoolloh. YUNESKO istiqomatgoh shaharlargagina “muzey shahar” maqomini berar ekan. Illo, inson qadam qo‘ymagan har qanday ma’vo, har qanday obida, inson ko‘zi tushmagan har qanday kitob huvillab qoladi.

**TAHRIRIYATDAN:**

**Ushbu maqola matbuotda ilk bor chop etilmoqda. Gazetamizning doimiy hamkorlaridan biri Ro‘zimboy Hasan o‘z arxividan ushbu maqolani topib, Ogahiy hazratlarining tavallud kuni munosabati bilan bizga taqdim etdi. Qandaydir sabablar bilan hech bir nashrda bosilmay qolib ketgan bu qo‘lyozma siz-u bizning ko‘z o‘ngimizda sokin-vazmin yashab, ijod qilib o‘tgan iste’dodli shoir Matnazar Abdulhakimning buyuk ustozlar ijodiga o‘ziga xos nuqtayi nazaridan o‘quvchilarni bahramand etishi bilan ahamiyatlidir.**

JAHON AYVONIDA

### AFRIKA QIT’ASI BO‘LINAYOTIR




Olimlar geologiya sohasida inqilobiy kashfiyot arafasida turibdi. Afrika qit’asini tashkil etgan tektonik plitalarning asta-sekin ajralishi yuz bermoqda. Bu jarayon Afrika qit’asining shaklini o‘zgartirib, geografiyaga global ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Gap shundaki, Yer qobig‘i uzluksiz harakatda bo‘lib, tektonik plitalar millionlab yillar davomida sezilarsiz siljib boradi. Anchadan buyon g‘oyat qiziqarli hodisa kuzatilmoqda. Afrika qit’asining sharqiy va g‘arbiy qismlari asta-sekinlik bilan bir-biridan uzoqlashayotir. Bu ajralish jarayoni natijasida ular orasida yangi okean paydo bo‘lishi mumkin.

Efiopiya hududida 56 kilometr uzunlikdagi yoriq hosil bo‘lgan va u kengayishda davom etmoqda. Buning natijasida yangi suv havzalari paydo bo‘ldi.

Eslatib o‘tamiz, o‘tmishda Pangeya materigi parchalangandan buyon dunyo okeani beshta qismga bo‘lingan: Atlantika, Tinch, Hind, Shimoliy Muz va Janubiy. Olimlar Afrika qit’asining kelajakda bo‘linib ketishi natijasida yangi, oltinchi ummon paydo bo‘lishi mumkin deyishmoqda.

### DUNYONING ENG BOY ODAMI

SpaceX va Tesla kompaniyalari asoschisi Ilon Mask tarixda sof sarmoyasi 400 milliard AQSh dollaridan oshgan birinchi odam bo‘ldi, deb yozmoqda Blumberg agentligi.



Blumbergning ta’kidlashicha, 2022-yil oxirida Maskning kapitali 200 milliard dollardan kamroq edi. Biroq so‘nggi paytlarda u o‘sishni boshladi va ayniqsa, Donald Tramp AQSh prezidenti etib saylangach, keskin ko‘tarildi.

SpaceX aksiyalari narxi birdaniga oshib, Maskning sof kapitali taxminan 50 milliard dollarga ko‘paydi va hozirda 439,2 milliard dollarga yetgan.

Forbs jurnali hozircha Maskning boyligini rasman 367,5 milliard dollar darajasida qayd etgan. U hamon jurnal milliarderlari reytingida birinchi o‘rinda turibdi.

### 88 YOSHLI QARIYA MUSIQA IMTIHONIDAN O‘TDI



Rey Eveley yoshligida pianino chalish bo‘yicha 7-sinfgacha tahsil olgan edi. 67 yildan so‘ng u 8-sinf imtihonini a’lo bahoga topshirdi. Qariyaning aytishicha, cholg‘u asboblarini chalish uning miyasini faol saqlashga yordam beradi, rafiqasi va qizi esa uni imtihon topshirishga undagan.

QADRIYAT

# JAHONGASHTA KASHTALAR

**Xalqimiz azaldan qo‘li gul insonlarni boshiga ko‘taradi. Mehnat-u ijod bilan yashagan elimizning qo‘shiqlari, laparlari, allasi-yu termasida hamisha go‘zallik va nafosat, mardlik va tantilik tarannum etilgan. Ertaklarimizda er yigitning hunari sharofati bilan tutqunlikdan xalos bo‘lgani, vafodor kelinchakning o‘z yoriga kashta naqshlari vositasida sirli maktublar yo‘llagani naql qilinadi. Yaqin-yaqingacha bo‘y yetgan qizlarimiz nuroniy momolardan do‘ppido‘zlik, tikish-bichish borasida dars olardi, bo‘lajak yoriga ro‘molcha to‘qib, o‘zining sepini to‘ldirardi. E’tiborli jihati, bunday ezgu an’analar hozirgi zamon bilan uyg‘unlashib, tadbirkorlikning yangicha turiga asos bo‘lmoqda.**

**O‘z hunari ortidan dunyo kezib, elning duosini olayotgan, turmushi farovonlashib, hayotiga mazmun kirayotgan yurtdoshlarimiz talaygina. Urgutlik Qurbonoy Turdiyeva ana shunday insonlardan biri hisoblanadi.**

Bu chevar ayolning nomi bugun nafaqat yurtimizda, balki xalqaro moda va kashtachilik olamida ham ancha mashhur. Chunki u milliy kashtachilik san’atini zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirib, bu borada o‘ziga xos uslub yaratishga erishgan.



Qurbonoy opa Urgutning viqorli tog‘lar bilan o‘ralgan chekka bir qishlog‘ida momolaridan chevarlik sabog‘ini olayotgan chog‘laridayoq kashta naqshlari qatiga yashiringan ramz-u majozlarni milliy liboslarga ko‘chirish haqida o‘ylay boshlagan edi. Keyinchalik u jiddiy izlanishlar olib borib, bu borada salmoqli natijalarni qo‘lga kiritdi.

Xalqimiz orasida milliy kashtachilikka ehtiyoj kattaligini sezgan Qurbonoy Turdiyeva dastlab Urgut kashtachiligi an’analarini yangicha ko‘rinishda taqdim etishga jazm qildi. Bu borada muayyan yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, lekin izlanishdan to‘xtamadi. Kashtachilikda o‘z yo‘li, o‘z uslubiga ega bo‘lishga intildi. Maktabda o‘qib yurgan paytlarida uyg‘ongan qiziqish bora-bora uni yangicha dizayn yaratishga undadi. Ayniqsa, milliy kashtalarimizda qo‘llaniladigan naqshlarni zamonaviy kiyimlarga ko‘chira boshlagach, tez orada xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi. Hozirda Fransiya, Italiya, Ispaniya, Shveytsariya, Xorvatiya, Turkiya va boshqa qator davlatlarda u yaratgan o‘zbekcha liboslar milliylikka asoslangan zamonaviy kiyinish uslubining yorqin namunasi sifatida e’tirof etilgan.

Eng muhimi, Qurbonoy opa psixologik omillarni ham nazardan qochirmaydi. Ya’ni, u yaratgan naqsh va rang kombinatsiyalari inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Liboslar esa ekologik toza materiallardan tikiladi. Bunday yondashuv dunyo hamjamiyatida bugun eng dolzarb bo‘lib turgan ekologik muammolarni hal etish va tabiat musaffoligini saqlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qurbonoy opa milliy kashtachilik san’atimizni dunyo miqyosida targ‘ib va tashviq qilish borasida ilmiy izlanishlar ham olib bordi. Uning shu mavzudagi ko‘plab maqolalari nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etilmoqda. Xususan, “O‘zbek kashtachiligining tarixiy-madaniy ahamiyati” nomli maqolasida Buxoro, Samarqand va Toshkent hududlarida kashtachilik uslublarining tadriji, ularda aks ettirilgan naqshlar zamiridagi ramziy ma’nolar hamda ularning to‘y va diniy marosimlardagi roli atroflicha yoritilgan bo‘lsa, “O‘zbek kashtachiligini an’anaviy o‘rgatishda ustoz-shogird an’analari: madaniy merosni asrab-avaylash” maqolasida esa bu yo‘nalishda ustoz-shogird munosabatlarining ahamiyati atroflicha tahlil qilingan.



“Charx yigirsang, ip bo‘lar, o‘rgan degan ko‘p bo‘lar”, deydi dono xalqimiz. Qurbonoy opaning shogirdlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. U kishi yosh qiz va kelinchaklarga qo‘lidagi hunarini, dilidagi borini qizg‘anmay o‘rgatadi. To‘g‘ri-da, elniki-elga! Shu xalqdan olganini shu xalqning bolalariga bermoqda. Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, “Hunarni asrabon netgumdir oxir, Olib tufroqqamu ketgumdir oxir”.

Qurbonoy Turdiyeva milliy va xalqaro ko‘rgazmalarda faol ishtirok etib, o‘z mahsulotlarini dunyo bo‘ylab namoyish qilmoqda. Respublika “Hunarmand” uyushmasi bilan hamkorlikda ezgu loyihalarni amalga oshirmoqda. Shubhasiz, u kishining yutuqlari milliy kashtachilik san’atimizning jahon miqyosidagi muvaffaqiyati sifatida e’tiborga loyiqdir.

N.HABIBULLAYEVA

Boshlanishi 1-sahifada.

# TARIX TILGA KIRGANDA

Ma'lum bo'lishicha, SSSR Oliy sudining Harbiy kollegiyasi 1936-yil 1-oktyabridan 1938-yil 30-sentyabrigacha 3051 kishini otuvga, 5643 kishini 8–15 yillik qamoqqa hukm etgan. Bu raqamlar ortida qanchadan-qancha taqdirlar, orzular, kamolga yetgan chog'da juvonmarg bo'lgan iste'dod egalari va ularning yaqinlari to'kkan achchiq ko'z yoshlar, faryodlar borligini o'ylash kishini chuqur qayg'uga soladi.

1938-yil 4–10-oktyabr kunlari Toshkentda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor yig'ilishlari o'tkazilgan. Bu yig'ilishlarda 507 nafar o'zbekistonlik otuvga hukm qilingan. Taassufki, hukm ijrosi oshig'ich ijro etilgan – bir kun kechiktirilmagan. Qurbonlar esa aybi bor yoki yo'qligini to'la anglab-anglamay, yaqinlari bilan vidolashishga ulgurmay hayotdan ko'z yumgan.

Mana, o'sha "qoraxat"lardan biri – SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasi raisi, harbiy yurist G.Alekseyevning 1938-yil 4-oktyabrda O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissari, Davlat xavfsizligi mayori Derenik Zaxarovich Apressyanga yo'llagan rasmiy talabnomasi qo'limizda... Unda 1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi tomonidan ismi nomma-nom keltirilgan 52 mahbus oliy jazoga – otuvga hukm etilgani yozilgan. Bu dahshatli hukmni ijro etish O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari D.Z.Apressyan zimmasiga yuklatilgan.

2012-yili "Sharq" nashriyotida chop etilgan "O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari" kitobimizda 4-oktyabrda otuvga hukm etilgan Akbar Islomovich Islomov haqida mana bu ma'lumotlar keltiriladi: *"Islomov Akbar Islomovich, 1896-yili Qo'qon shahrida duradgor ishchi oilasida tug'ilgan, o'zbek, rus-tuzem maktabida, yangi usul maktabida ta'lim olgan. Birinchi jahon urushi tufayli moddiy ahvoli nochor bo'lganligidan Qo'qon shahridagi Obidjon Mahmudovning bosmaxonasiga ishga kiradi. "Sadoyi Farg'ona" musulmon gazetasida, keyin 1917-yilning oxiriga qadar Belskiy bosmaxonasida rus va o'zbek tilida harf teruvchi bo'lib ishlaydi. 1916-yil Chor hukumatining mardikoroldi siyosatiga qarshi chiqqan, ana shu siyosatni fosh etuvchi murojaatlar yozib masjidlarda tarqatgan.*

*U Turkiston muxtoriyati hukumati ochgan yangi bosmaxonada ham harf teruvchi bo'lgan. Qo'qon voqealaridan keyin bosmaxona bo'limida ishlab, musulmon ishchilar ittifoqiga kirib, unga raislik qiladi. 1918-yil avgustida bolsheviklar partiyasiga kirib, Turkiston ASSR Sovetlarining VI s'yezdida Markaziy Ijroiya Komiteti a'zoligiga saylanadi. 1918-1919-yillarda Toshkentda Ichki ishlar va Tashqi ishlar kollegiyasi a'zosi, 1919-yil yanvardan avgustgacha RSFSRning Buxoro amirligidagi doimiy vakilligi raisi o'rinbosari bo'lib ishlaydi. 1919-yil noyabrdan 1920-yil avgustgacha Turkiston Respublikasi Ichki ishlar xalq komissari o'rinbosari bo'lib xizmat qiladi.*

*1927–1929-yillari Moskvada O'zbekistonning SSSRdagi doimiy vakili sifatida faoliyat olib borgan. 1929–1932-yillar mobaynida O'zSSR plan komissiyasining raisi, O'zSSR moliya xalq komissari lavozimlarida ishlagan. 1932-yili O'zSSR Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan moliyaviy frontdagi faol ishlari hamda respublika xalq xo'jaligini mustahkamlashdagi ishtiroki uchun "Qizil Bayroq" ordeni bilan taqdirlangan".*

1937-yil 21-iyunda to'lg'izilgan kadrlarni hisobga olish shaxsiy varaqasida xotini, bir o'g'li, bir qizi borligi, Toshkent shahrining Oqqo'rg'on ko'chasi 5-uyda yashashi qayd etilgan.

Qahramonimiz haqida o'z davrining yetuk arboblari Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalar chin qalb so'zlarini izhor etganlar. Keyinchalik majburiy ko'rsatmalarga binoan quyidagicha ma'lumot ham keltiriladi: *"1933-yilning qishi va yozida Fayzulla Xo'jayevning uyida markaziy tashkilot rahbariyatining qator kengashlari bo'lgan. Ularda Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Mirkomil Mirsharopov, Akbar Islomov va Abdullajon Karimov ishtirok etgan. Bu kengashlarda aksilinqilobiy tashkilotlar ishini faollashtirish masalalari muhokama qilinardi. Shu davrdan, ayniqsa, 1935-yildan xalq xo'jaligining barcha sohalarida va mafkuraviy frontda aksilinqilobiy zararkunandachilik ishlari keng avj oldirilgan. Eng avvalo, aksilinqilobiy ish eski millatchi xodimlarni saqlab qolish va respublikadagi sovet-partiya apparatida rahbarlik lavozimlarini egallab olish bo'yicha harakat olib borilgan. Bu sohada tashkilotlarimiz tomonidan juda ko'p ish qilishga erishildi va 1930-yilga kelib respublikaning deyarli barcha viloyatlari markazidagi rahbarlik lavozimlarida bizning tashkilotimiz a'zolari bo'lgan".*

1937-yil 15-sentyabrdagi tergovda Qoraqalpog'iston oblast partiya komiteti sobiq kotibi Davlat Rizayev (u 1937-yil avgustida qamoqqa olinib, shu yil 1-oktyabrda qamoqda vafot etgan), Akmal Ikromov rahbar bo'lgan "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zolaridan biri, O'zSSR moliya xalq komissari, aksilinqilobchi, millatchi Akbar Islomov bo'lganligi haqida guvohlik beradi.

"Milliy istiqlol"chi Abdulhamid Cho'lpon 1937-yil 10-avgustdagi tergovda Akbar Islomovning bu tashkilotni har jihatdan qo'llab-quvvatlagani xususida shunday yozgan: *"Men Moskvadan O'zbekistonga kelish yo'lida Akbar Islomov bilan birgalikda poyezdda kelardim. Akbar Islomov esa ungacha Kuybishevdan Moskvaga kelgan edi. Akbar Islomov men joylashgan vagonga kirib kelib, xususiy gaplarimizdan so'ng meni kupesiga, keyin esa restoranga taklif etdi. Suhbatimiz chog'ida Akbar Islomov mening Moskvada bo'lganimda nimalar yozganim, O'zbekistonga ketayotganim sababi va moddiy ahvolim hamda boshqa sohalarni qiziqib so'radi.*

*Toshkent vokzalida Akbar Islomov menga pul berdi. O'z mashinasida olib ketdi va zarur holatlarda menga yordam berishni va'da qildi. Toshkentga kelgach, men Akbar Islomovning xizmat xonasiga kirdim, chunki uning huzuriga to'g'ridan-to'g'ri kirish huquqim bor edi. U Fayzulla Xo'jayev bilan uchrashuv tashkil etdi va moddiy yordam berdi (500 rublni F.Xo'jayev orqali va 700 rublni A.Karimov orqali berdi)".*



**Birinchi qator chapdan o'ngga:** Yo'ldosh Oxunboboyev, Fayzulla Xo'jayev, Akbar Islomov. **Ikkinchi qator chapdan o'ngga:** Tashqi ishlar vaziri Tursun Xo'jayev, Toshkent shahar soveti raisi Abdulxay Tojiyev.

Taniqli davlat arbobi 1937-yili 9-aprelda hibsga olingan Sa'dulla Tursunxo'jayev ustidan 1937-yil 1-avgustda va 10-oktyabrdagi tergovlarda "Milliy ittihod", keyinchalik "Milliy istiqlol" millatchi tashkilot rahbarlari tarkibida Akbar Islomovning bo'lganligi qayd etilgan. Tergovdagi savollarga bergan javoblarida Akbar Islomov bilan birga Akmal Ikromovning uyiga borgani, u haqiqatan millatchi tashkilot "Milliy istiqlol" a'zosi ekanini tasdiqlagan.

1937-yil 5-avgust kuni O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasi 4-bo'lim komendaturasi tomonidan Akbar Islomov hibsga olingan. Undan 36632-sonli "Nagan" revolveri, kichik kalibrli to'pponcha, jami 16 turdagi shaxsiy buyumlar olib qo'yiladi.

O'zSSR NKVD va Davlat xavfsizligi katta leytenanti Tarasenko nomiga siyosiy mahbus Akbar Islomov ustidan 1937-yil 22-iyulda raport berilgan. Unda tungi tekshiruv vaqtida 54-kamerada mahbus Islomov qamoqxona devorlarini arabcha yozuvlar bilan tirnab tashlagani aniqlandi, deyiladi.

So'nggi tergovda ayblanuvchi Akbar Islomovga tergovchining "Sizning ishingiz bo'yicha tergov tugadi. Ko'rsatmalarga qo'shimchangiz bormi?" degan savoliga u quyidagicha javob qilgan:

*"Men ko'rsatmam bo'yicha quyidagilarni ma'lum qilmoqchiman: Men Islomov Akbar partiyaga kirganimda ham, uning safida bo'lganimda ham aksilinqilobiy tashkilotda bo'lmaganman va aksilinqilobiy tashkilot mavjudligi to'g'risida bilmaganman. Moliya xalq komissarligi tizimida aksilinqilobiy tashkilotda bo'lganligimni mutlaqo inkor etaman. Bayonnoma men tomonimdan o'qildi. Og'zimdan aytilgan gaplar to'g'ri".*

Ta'kidlash joizki, mahbus Akbar Islomov kamerada bo'lganida unga nisbatan ko'plab jismoniy, ruhiy azob berilib, alohida jazo kameralariga tashlangan. U qo'shni kameralar bilan yo'talish orqali aloqada bo'lganlikda, mahbuslar orasida turma ichki tartibini doimiy buzganlikda, buzg'unchilik ishlari olib borganlikda ayblangan. Shu sabab 10 kunlik muddatni jazo kamerasida o'tagan.

SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1938-yil 4-oktyabrdagi sayyor yig'ilishida Islomov Akbar Islomovich otuvga hukm qilinib, hukm o'sha kunning o'zida ijro etilgan.

2000-yillarga kelib, uzoq izlanishlardan so'ng Akbar Islomovning Gruziyada oilasi yashagani, o'g'li borligi ma'lum bo'ldi. Stalin vafotidan keyin qatag'on qurbonlari "oqlanib", reabilitatsiya qilindi, degan iddaolar yangray boshlagan. Biroq bu siyosat sovetlarga xos ko'zbo'yamachilik va ikkiyuzlamachilikdan boshqa narsa emas edi. Islomovning turmush o'rtog'i SSSR Bosh prokurori va boshqa vakolatli organlarga marhumning nomini oqlashni, adolatni tiklashni so'rab qayta-qayta yo'llagan murojaatlari e'tiborsiz qoldirilgan.

**Rustambek SHAMSUTDINOV,**
**tarix fanlari doktori,**
**professor**

O'QIDINGIZMI?

# YIGIT OMON BO'LSA...




**Poytaxtimizning Olmazor tumanida joylashgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hududida yangitdan bunyod etilgan Mudofaa vazirligi "Ma'naviyat va madaniyat departamenti" binosi foydalanishga topshirildi.**

**Mazkur yangi binoning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, Mudofaa va Madaniyat vazirligi rahbariyati, turli idora va jamoat tashkilotlari mas'ullari, ijod ahli va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi. Tadbir doirasida "Harbiy jadidlar xotirasi barhayot" kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.**

Ushbu kitob beshta bo'limdan tarkib topgan. Ularning har biri alohida hudud, alohida mavzularni qamrab olgani bilan ham ahamiyatli.

Mudofaa, prokuratura, ichki ishlar, adliya kabi organlarda xizmat qilgan, bir so'z bilan aytganda, harbiy sohaning mohir mutaxassislari, o'z davrining ma'rifatparvarlari qatag'on qilichi ostida bo'la turib, el manfaatlarini himoya qilishga intilgani bugun arxiv manbalaridan yaxshi ma'lum.

*"Biz turkistonlik turk bolalari Muxtoriyat e'lon etdik. Endi Muxtoriyatimiz barqaror o'lsun desak, bizga quvvat lozim. Ul quvvat askarlikdir. Quvvatimiz bo'lgan askarlikka jon dil ila boqub, qalbimizni unga tufha etaylik. Aslo unutmaylik. Och, suvsiz tursak ham boshqa bir narsaga qaramasdan faqat qahramon askarimizni tushunaylik! Zero, bu islomiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydir. Buning ila buyuk bo'ladir. Buning ila shon beradir, buning ila hayot bo'ladir, buning ila muzaffariyatga noil o'lub jahonni titratadir. Buning ila ajdod-atomiz bo'lgan fotihlarning, qahramonlarning ruhlarini shod etaylik, moziyimizni xotirga keltirib, istiqbolimizni tayin etaylik. Harakat etaylik. Bir birimiz-la yomon harakatlarda bo'lmasdan, dushmanlarimiz-la olishib nomshon olaylik, iftixor etaylik..."*

Turkiston jadidlarining yuqoridagi so'zlari va tavsiyalariga butun xalq "Labbay!" deb javob bergan holda o'z ichlaridan vatanni mudofaa etadigan ko'plab o'g'lonlarni yetishtirib berdi".

"Encyclopedia world" nashriyotida chop etilgan "Harbiy jadidlar xotirasi barhayot" kitobiga tarix fanlari doktori, professor Baxtiyor Hasanov tomonidan yozilgan so'zboshidagi fikrlar aytar gapimizga esh bo'lgani uchun uni iqtibos etdik. Millat taraqqiyotini maqsad qilgan jadidlar xalqni jaholatdan ma'rifat sari boshlash asnosida hurriyat yo'lida milliy qo'shinni, sadoqatli harbiy qo'mondonlarni tayanch sifatida ko'rishgan.

Harbiy komissarlar, qo'mondonlar, generallar, komandirlar, qo'yingki, el-u yurt osoyishtaligi, adolat ustuvorligi yo'lida xizmat qilgan qaysiki ziyoli bor bo'lsa, barchasi qatag'on qirg'ini domiga tortilgan. Ana o'sha qahramon ajdodlarimizning achchiq qismatidan hikoya qiladi bu kitob.

Mutolaa chog'ida millat fidoyilarining iztiroblarini, ularning ozodlik va hurriyat yo'lida chekkan zahmatlarini his qilasiz, yurt o'g'lonlarining sabr-u matonatiga va cheksiz sadoqatiga guvoh bo'lasiz.

**Diyorbek MAHMUDOV**

XOTIRA AZIZ



# QATAG'ON QURBONLARI

**(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).**

**Haqqul Husanboyev** – 1880-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Tilmochlik bilan shug'ullangan. Turkiston muxtoriyatini tashkil etilishi s'yezdida ishtirok etgan. 1917-yildan Andijon shahridagi "Turon" tashkiloti a'zosi bo'lgan. Oktyabr to'ntarishi davrida Andijon eski shahri va uning tevarak atrofida ishchi va askar deputatlari soveti tashkil qilgan. 1917-yil oktyabrda bolsheviklar partiyasiga a'zo bo'lgan. 1917-yil dekabrida Farg'ona oblast ishchi va askar deputatlari sovetiga saylangan. 1919-yil 4-dekabrda Moskva shahrida V.I.Lenin huzurida bo'lib suhbat qurgan. 1928–1930-yillarda Toshkent oblasti partiya va sovet tashkilotlarida mas'ul lavozimlarda ishlagan. 1937-yil hibsga olinib, 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. 1947-yil qamoqda og'ir kasallikdan vafot etgan.

**Yoqubjon Isaqulov** – 1885-yili Andijon shahrida tug'ilgan. 1908-yilgacha maktab va madrasada o'qigan. 1908-yili Yangiariq paxta tozalash zavodida ishchi, so'ngra moddiy yordamchi bo'lib xizmat qilgan. 1916-yilgi milliy ozodlik qo'zg'olonida faol qatnashgan. 1917-yil fevral inqilobi davrida jamoat xavfsizlik komiteti a'zosi hisoblangan. 1918-yil 27-iyunda Andijon eski shahar musulmon kommunistlari firqasi a'zosi, chorikorlar ittifoqining raisi, 1918-yildan musulmon deputatlari Sho'rosi raisi o'rinbosari bo'lgan. 1919-yil 16-oktyabrda uyezd-shahar partiya komiteti raisi o'rinbosari va keyinchalik raisi, shuningdek, eski shahar partiya komiteti raisi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. 1922-1923-yillarda Andijon uyezdi bo'yicha paxta va boshqa dehqonchilik ekinlari ekish kampaniyasiga rahbarlik qiladi. 1924-yil 28-fevraldan Turkiston paxtachilik qo'mitasi raisi buyrug'i bilan Andijondagi 20-son paxta tozalash zavodiga direktor etib tayinlanadi. 1926-yili 6-mayda Samarqandda hibsga olingan. Shu yil 25-26-may kunlari poytaxt Samarqandga, respublika GPUsiga yuboriladi. 1927-yili 1-martda Oxunboboyev nomidagi teatr binosida sud qilinadi. Sudda Yoqubjon Isaqulov otuvga hukm qilingan. Shunda u endigina 46 yoshni qarshilagandi.

**Qayumjon Qurbonov** – 1898-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. Aksilinqilobiy maqsadda Qashg'arda yashayotgan va kapitalistik davlatlardan birida konsullikda ishlayotgan ukasi Ismoiljon bilan aloqada bo'lib, unga aksilinqilobiy ma'lumotlar yetkazib turganlikda; 1936-yili sentyabrda Andijon orqali Shvetsiyaga qaytayotgan missionerlar Nosterem va Soterberglarni Andijon shahrida kutib olib, ularni Orenburg shahrigacha kuzatib borib, aksilinqilobiy tuhmatona ma'lumotlar berganlikda; ochlik haqida aksilinqilobiy, ig'vogorona gaplar, mish-mishlar tarqatganlikda ayblanib, 1938-yil 13-fevralda otuvga hukm qilingan. Hukm 1938-yil 10-mart kuni ijro etilgan.

**Islombek Arslonbekov** – 1901-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1918-yili ko'ngilli harbiy xizmatda bo'lgan. O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi Akmal Ikromov 1937-yil 21-sentyabrda qamoqqa olinganidagi tergovda aksilinqilobiy tashkilotda Islombek Arslonbekov ham bo'lgani qayd etilgan. 1937-yil 8-oktyabrda qamoqqa olinib, Toshkent turmasiga keltirilgan. Unga O'zbekistonda aksilinqilobiy faoliyat ko'rsatgan, degan ayb qo'yilgan. SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining 1938-yil 8-oktyabrdagi sayyor yig'ilishida Islombek Arslonbekov otuvga hukm etilgan, hukm o'sha kunning o'zidayoq amalga oshirilgan.

**Muhitdin Tursunxo'jayev** – 1900-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. 1914-yili diniy maktabni bitirgan. 1911–1914-yillari Toshkentdagi rus-tuzem maktabi 3-kursini, shahar bilim yurtining 2-sinfini bitirgan. Oktyabr to'ntarilishiga qadar turli idoralarda xat tashuvchi, ishboshi, sarkor vazifalarida, shuningdek, 1918-yil boshidan "Maqsud" kooperativida ishlagan. 1920-yili Moskvadagi Y.M.Sverdlov nomli kommunistik universitetni bitirgan. O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari o'rinbosari, 1929-yil 6-noyabrdan O'zSSRning hukumatida muxtor vakili sifatida faoliyat olib borgan. O'z xizmat jarayonida partiyaviy jazo olmagan. Barcha ziyolilar qatori qatag'on domiga tortilib, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 4-oktyabrdagi yig'ilishida otuvga hukm qilingan. Hukm o'sha kuni ijro etilgan, hozirda oqlangan.

**Nigoraxon AKBAROVA,**
**ilmiy xodim**

**(Davomi kelgusi sonda).**

UYAT!

# OCHIQ KO‘Z KO‘RADI, HUSHYOR BO‘LING!



**Yaqinda nufuzli teatrlardan birida mutafakkir shoir tavalludiga bag‘ishlangan bayram anjumani o‘tkazildi. Shu kun mening xotiramda o‘chmas iz qoldirdi. Yo‘q, aziz o‘quvchi, bu ibora siz o‘ylaganday doim qo‘llaniladigan ijobiy ma’noda emas, bil’aks, bitmas jarohat izi sifatida ishlatildi. Gap shundaki, anjumanga yig‘ilgan tomoshabin avvalboshdan ko‘zimga olaquroq ko‘rindiki, ularning egni-boshi, ko‘z qarashi, qolaversa, yoshi mutanosib emas edi. Xavotirim bejiz emas ekan. Tadbir ochilib ulgurmay, biri esnab, biri telefonbozlik qilib, biri kavsh qaytarib, boshqasi gap otib o‘tirgan “muxlis”larning noziri juftakni rostlavordimi, zaldagi chiroq o‘chganida vaqtni g‘animat topishdimi, hartugul to‘rt eshikni qibla bilib, birin-ketin tashqariga yopirilib qoldi. Endi kaminaning ahvolini tasavvur qilavering.**

Men guras-guras o‘zini ko‘chaga otayotgan tengdoshlarim ortidan qarab turib, shu payt ularning “hisob”idan izza tortib o‘tirib, o‘ylab o‘yimga yetolmasdim. Ular o‘z qilmishlarini nima vaj bilan oqlarkan? “Ularda ayb yo‘q, aybdor – tadbirga talabalarining qiziqishini hisobga olmay ixtiyoriy-majburiy olib kelgan domlasida”, deb ham tengdoshlarimni oqlamoqchi bo‘ldim. Ammo... O‘zbekona istihola, ko‘ngilni avaylash, odob qayerda qoldi? Nega masxaraboz “san’at yulduzlari”ning betayin konsertlariga falon pulga chipta olib, soatlab o‘tirishadi-yu, na naqdi, na vaqtiga achinishadi? Xullas, o‘sha kundan beri ko‘nglim g‘ash, dilim xufton. O‘zimcha bu illatning ildizini izlayman.

Yurtimizda teatr va kino rivojlanguniga qadar dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, chodirxayol, kurash-u ko‘pkari kabi ommaviy tomoshalar aholining ma’naviy ehtiyojini qondirib kelgan. Ular yosh avlod orasida halollik, mardlik, jasurlik, chapdastlik va o‘zaro hurmatni shakllantirishda muhim omil hisoblangan. Bizda tomosha madaniyati o‘sha paytlarda shakllana boshlagan deb bemalol aytish mumkin. Yoshi ulug‘ kishilar o‘tirishi, yonboshlashi uchun ko‘rpacha-gilam to‘shaladi (masalan, kurashda), undan keyin kichik tomoshabinlar, keyin bo‘yi uzunroq kishilar joylashadi. Ayollar va bolalar alohida hurmatda. Qisqasi, bu davrda umummilliy odatlar va insoniylik tamoyillariga tayangan tomosha madaniyati hukm surgan.

Keyinroq hayotimizga o‘z tartib-qoidalari bilan teatr va kino kirib keldi. Unga hamma so‘zsiz qiziqish bilan qaragani tarixdan ma’lum. Chunki el-ulusning tomoshaga tayyorgarligi bor edi. Taqdim qilinayotgan asarlar va ularning janri omma uchun yangilik bo‘lgan, xolos. Inson tabiati shunday, umrida ko‘rmagan havo pufagiga hayrat bilan uzoqroq tikiladi. Ammo to‘qlikka sho‘xlik yo‘qchilik zamonlarida emas, to‘kinlik davrida bo‘ladi. Tomosha talabini qondiruvchi unsurlar ortgani sayin, tomoshabin madaniyati va saviyasi tushib ketayotgandek...

*“Xalqning asl madaniyati oddiy odamlarning qalbida yashaydi”*
**Mahatma GANDI**

Hozirgi kunda yurtimizda 40 ta davlat teatri faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, havaskorlik va xususiy teatr-studiyalari ham mavjud. Ba’zilari tomoshabin tanlaydi. Ya’ni, ko‘ruvchining qo‘yiladigan asarga tayyorligiga qarab spektaklga patta beriladi. Ular uchun keladigan daromad emas, tomoshabinning saviyasi muhim. Biroq hammasining ko‘ruvchilarga qo‘yadigan talabi bir xil: diqqat, ozodalik va asar namoyishiga xalal bermaslik, bir so‘z bilan aytganda, tomoshabin madaniyati!

Teatr zaliga kechikib kelish, tomoshabinlarga xalaqit berish, spektakl vaqtida telefonda yoki hamrohi bilan gaplashib o‘tirish, tomosha yarmida zaldan chiqib ketish kabi holatlar ham, afsuski, tez-tez kuzatiladi. Zalga pista va shunga o‘xshash yeguliklar bilan kirish, o‘tirgan o‘rnida turli chiqindilar qoldirish, o‘rindiqlarga saqich va shunga o‘xshash narsalar yopishtirib ketish teatr xodimlarining ko‘nglini xira qilishi tabiiy.

Kattalar uchun mo‘ljallangan spektakllarga bolalari bilan kirayotgan ota-onalar ham bor. Avvalo, ular asarning tub mohiyatini teran anglamaydi yoki ayrim qochirim va harakatlarni noto‘g‘ri tushunishi mumkin. Undagi baqir-chaqirlar, ko‘zyoshlar yoki boshqa nozikroq sahnalar murg‘ak qalbni ma’naviy oziqlantirish o‘rniga jarohatlashi aniq. Chaqaloq bilan teatrga kiradiganlar esa tamoman boshqa mavzu. Yuqori chastotali tovushlar go‘dak salomatligiga jiddiy ta’sir qiladi. Qolaversa, ko‘pgina sahna asarlari, asosan, kechki soat oltidan keyin namoyish qilinadi. Spektakllar o‘rtacha ikki soat davom etishi, shuningdek, yo‘lda o‘tkaziladigan vaqtni ham hisobga olsak, bolalar uyquga ancha kechikadi. Yosh tomoshabinlar uchun mo‘ljallangan teatrlar asosan kunduzi faoliyat ko‘rsatishi bejiz emas, albatta. To‘g‘ri, emizikli bolasi bor onalarning ham teatrga tushgisi keladi. Lekin izlagan imkon topishi tayin.

Avvalo, tomosha tanlashni bilish lozim. To‘g‘ri, bugun turli oldi-qochdi, bachkana va maza-matrasiz konsertlar, shoular juda ko‘payib ketdi. Buning asosiy aybdorlari ham o‘zimiz. Toki falon pulga chipta olib, ularning tegirmoniga suv quyib turguvchilar bor ekan, bu bozor kasod bo‘lmaydi. Saviyali asarlar esa har kuni ham yaralavermaydi. Ularni siz-u biz qo‘llab-quvvatlasak, qadriga yetsak, ko‘payadi, yashab qoladi.

*“Madaniyatsiz jamiyat, har qancha erkin va farovon bo‘lmasin, changalzordan farqi yo‘q”*
**Alber KAMYU**

Yana bir xunuk holat. Konsert zallarida tomosha oldidan “Aziz tomoshabin, tomosha zalida spirtli ichimlik ichish, nos va tamaki chekish, yo‘laklarni iflos qilish qat’iyan man etiladi!” degan mazmundagi e’lon yangraydi. Shuning o‘zi bizda tomosha madaniyati hali to‘la shakllanmaganidan darak beradi. Chunki, madaniyatli insonlarga bu gaplarni aytib o‘tirish shart emas. Qolaversa, chet ellik mehmonlar oldida juda ham noqulay.

Konsert har qancha qiziq bo‘lmasin, baribir, kishi o‘z xatti-harakatlarini jilovlagani ma’qul. Ayrim tomoshabinlar sahnaga chiqqan qiz-juvonlarga o‘rinsiz luqma tashlashi, biror ilmoqli gap bo‘lsa, yonveriga qaramay hushtak chalishi yo tizzasiga urgani yetmagandek, yonidagi hamrohini turtib qo‘yishi ham bor gap. Shuningdek, arzimasdek tuyilsa-da, ta’bni xira qiladigan yana bir jihatni ham aytib o‘tish kerak. Jamoat joylarida juda o‘tkir atirlardan foydalanish, ayniqsa, yoz kunlarida ko‘ngilni aynitadigan darajada yoqimsiz hid taratish ham umumaxloqiy mezonlarga to‘g‘ri kelmaydi. Har narsaning me’yori bo‘lgani durust. Yurakni yayratish, aqlini peshlash, qisqa qilib aytganda, madaniy hordiq chiqarish uchun tomoshagohga kirgan kishining yonida badanidan ta’bni xira qiladigan bo‘y anqib turgan odam o‘tirsa, bu albatta, uning kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qars ikki qo‘ldan chiqadi, deyishadi. Faqat tomoshabindan kamchilik topish bilan ish bitmaydi. San’atkorning ham o‘ziga yarasha madaniyati bo‘lishi kerak. Sahnaga ochiq-sochiq kiyimda chiqadigan, turli bachkana gaplarni qalashtirib, hazilga yo‘yadigan, hatto tomoshabinga do‘q-po‘pisa qiladigan “san’atkorlar” ham, afsuski, yo‘q emas. Ularni nazorat qiladigan vakolatli idoralar tartibga chaqirib qo‘ysa, yaxshi bo‘lardi.

Bir tomondan tashkilotchilarning ham yaxshigina aybi bor. Ular topshiriqni bajarish maqsadida qo‘l uchida yozilgan ssenariyni havaskor darajasidagi ijrochilarga tutqazib qo‘yishadi. Keyin “sun’iy tomoshabin” yig‘ish boshlanadi. Tabiiyki, “to‘y-to‘yday” bo‘lmaydi. O‘zi istamagan taomga ishtahasiz bo‘lgan “xo‘randa”lar nima qilib bo‘lsa-da, shu “dahmaza”dan tezroq qutulishni istaydi. Zerikkan tomoshabin telefon titkilaydi, yonidagi bilan gurunglashib o‘tiradi yoki sahnaga chiqqanlarni mazax qilish bilan ovora bo‘ladi.

Xullas, yana o‘sha gap: “Ochiq ko‘z ko‘radi”.

Bugun mediamakon har qachongidan ham kengaydi. Yer yuzida birgina “You Tube” platformasi foydalanuvchilari (2024-yil noyabr holatiga ko‘ra) 2,7 milliardni tashkil etadi. Unda dunyo bo‘ylab har kuni 1 milliard soatlik kontent tomosha qilinadi. Ammo yana o‘sha tanish savol o‘rtaga chiqadi: ular nimani ko‘rishadi?

Endi tomosha madaniyati teatr, kino yoki konsert zallaridan emas, zamonaviy uskunalardan boshlanadi. Ularni uzluksiz nazorat qilish esa, deyarli imkonsiz. Demak, hamma mas’uliyat ma’naviy immunitetga yuklanyapti. Uni esa siz-u biz shakllantiramiz. Ishni esa, avvalo, o‘zimizni turli buzuq va tuturuqsiz g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi mediamahsulotlarga qarshi “emlash”dan boshlashimiz kerak. Qush uyasida ko‘rganini qiladi. Hozirdanoq atrofimizdagi polaponlarga nimani, qachon va qanday ko‘rish kerakligini tushuntirib borishimiz lozim. Farzandlarimizga tomoshaga borish, tanlash odobini o‘rganish va o‘rgatish vaqti yetdi. Bu jarayon siyqa va besharm konsertlarda er-xotin, oshiq-ma’shuq, tog‘a-jiyan, ustoz-shogird beparda qochirimlardan shaytonlab, og‘zini amirkon kovushday ochib, bir-biriga qo‘l tashlab, “YouTube” “Instagram”, “Facebook”-larda o‘zlarining tekin tomosha obyektiga aylanib qolishidan uyalish tuyg‘usidan boshlanadi.

Hushyor bo‘ling, qadrli o‘quvchi, tomosha davom etadi!

**Shahriyor SHAVKAT**

TARMOQLARDA NIMA GAP?



**Shu kunlarda “Jadid”da chiqqan kitobxonlik to‘g‘risidagi bir maqola muhokamalarga sabab bo‘layotgani haqida siz ham eshitgandirsiz.**

**Mutolaaga targ‘ib juda yaxshi ish. Axir, kitob o‘qigan odamdan yomonlik chiqmaydi, degan eskilar. Bu gapda jon bor. Biroq ahli donishlarning kitobni saralab o‘qish joizligi to‘g‘risida aytgan yana ko‘plab fikrlari borki, uni ham o‘rni kelganda eslab o‘tmasak bo‘lmas.**

# FITNA URUG‘I

Chindan ham kitobni saralab o‘qimoq zarurligi, vaqt isrofiga yo‘l qo‘ymaslik borasidagi hikmat-u maqollar bugungi kitobxonni kitobxo‘rdan ajratib turguvchi asosiy farqqa aylanib borayotir.

Taassufki, ana shu farqni yo‘qotishga urinayotgan ayrim tashqi ta’sirlar ham yo‘q emas. Birgina misol, bugun ko‘pchilikning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilayotgan elektron do‘konlarni bir oralasangiz, unda xalqimiz mentalitetiga to‘g‘ri kelmaydigan ayrim noinsoniy munosabatlarni targ‘ib qiluvchi chet el adabiyotlari ham hech bir andishasiz sotilayotganini ko‘rasiz.

Tez fursatda katta auditoriyaga ega bo‘lgan mashhur onlayn do‘konlardan birida ana shunday “asar”larning omma iste’moliga tiqishtirilayotgani shaxsan menga millat qadriyatlari ildiziga urilgan boltadek xavfli ko‘rindi. Qo‘rqamanki, bu kitobni onlayn sotuvga qo‘ygan o‘zimizning qorako‘zlarning birgina ishi kelgusi avlodlari taqdirida misli ko‘rilmagan burilishlarga sabab bo‘lishini xayoliga ham keltirmagan...

Qip-qizil pioner galstugini taqib olgan ikki o‘rtoq qayiqda sayr qila turib, bir-biriga yozgan maxfiy xatini maxsus idishga yashirib, ko‘mib qo‘yishadi. Uzoq yillardan keyin kelib xatni ochib o‘qishga kelishishadi. Biroq xo‘shlashgach, o‘smirlardan biri ahdlashuv shartini buzib, o‘rtog‘ining ko‘milgan xatini ochib o‘qiydi.

Bir qarashda beozorday ko‘ringan mazkur asar syujeti tagzamirida o‘zbekona tutumlarga qarshi xatarli uchqunlar yotganini hamma ham payqayvermasligi mumkin. Biroq kitobxon ong ostiga tashlab qo‘yilgan ana o‘sha uchqun vaqt o‘tishi bilan alangalanib, uning ruhiyatida talofatlarga boy yong‘inlar keltirib chiqarish ehtimoli ham yo‘q emas.

Qisqasi, o‘sha xatda yigitcha o‘z do‘stiga “mehr”ini izhor etib, undan o‘zgaga ko‘ngil qo‘ymasligini ochiq bayon etadi. Boshqacha qilib aytganda, bir jinsli nikohni aslo qabul qilmaydigan iymonli aholi orasiga fitna urug‘lari ustakorlik bilan sepiladi. Xulosa o‘zingizdan...

**Mohirbek QO‘CHQOROV**
*Facebook*

TILBILIM

# “BOBUR”dan rang olgan “BABURIN”...

**Kuni kecha mashhur rus yozuvchisi Ivan Turgenevning “Punin va Baburin” qissasini o‘qib chiqdim. 1874-yilda yozilgan ixchamgina asarda voqealar qadimiy dvoryanlar mulkiga egalik qiluvchi boy pomeshchik ayolning o‘n ikki yoshli nabirasi Petya Baburin va uning do‘sti Punin atrofida sodir bo‘ladi.**

**Aytmoqchi bo‘lganim aslo bu haqda emas. Negadir XIX asrning ikkinchi yarmida rus xalqi orasida keng tarqalgan, shuningdek, qissa qahramonlaridan biri bo‘lgan Baburin istilohi e’tiborimni tortdi. Xayolimni yarq etib yorishtirgan nom – Bobur bo‘ldi.**




Xullas, shu so‘zning iziga tushdim. Rus manbalarida bu familiyaning kelib chiqishi va ma’nosi haqida bir qancha taxminlar mavjud ekan. Ajablanarlisi, aksariyat adabiyotlarda Baburin atamasi ildizlari forschada “yo‘lbars” ma’nosini anglatuvchi Bobur Mirzo ismiga bog‘lanishi bayon qilinadi. Ammo nazariyalar bu bilan cheklanib qolmaydi. Yana bir versiyaga ko‘ra, Baburin Bobur ismiga kichraytma va erkalash shakli qo‘shimchasi qo‘shilishdan hosil bo‘lgan. Shu tariqa Bobur – Baburinga, Baburina esa ayollarga nisbatan qo‘llanadigan familiyaga aylangan.

Yana bir manbada bu ismning ruslar orasida paydo bo‘lishi Markaziy Osiyodan kirib borgan turkiy qabilalar bilan bog‘liq ekanligi aytiladi. Ayrim atamashunoslar esa Baburinning “Bobrov” ismi bilan aloqasi bor deb hisoblab, uni qunduz bilan bog‘lasa, yana bir versiyaga ko‘ra Baburin “Babura” laqabidan kelib chiqqan bo‘lib, rus shevalaridagi “buvi”, “kapalak”, “achchiq qo‘ziqorin”, “oshiq o‘yini uchun suyak”, “toshbaqa baliq” kabi so‘zlardan yasalgan bo‘lishi mumkin. Ushbu nom Tula hududlarida ishlatilgan “baburit” – “gapirmoq” fe’lidan kelib chiqqan, degan taxminlar ham bor.

Ushbu familiya xususida bir qancha farazlarni o‘qir ekanman, ularning aksari bobomiz Bobur Mirzo shaxsiyatiga bog‘lanishi haqiqatga eng yaqin variant sifatida keltirilayotganiga guvoh bo‘ldim. Hatto, S.B.Veselovskiyning 1974-yili Moskvada nashr etilgan “Onomastikon. Qadimgi ruscha ismlar, taxalluslar va familiyalar lug‘ati”da ham XVI asrdagi yer egalari bo‘lmish Baburinlar haqida so‘z yuritiladi. Bu, o‘ylashimcha, shoh va shoir zamoniga eng yaqin davrdir.

To‘g‘risi, kalavaning ikkinchi uchini o‘zimizning tarix zarvaraqlaridan topib quvonib ketdim. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov “Avlodlar dovoni” romanida Baburin atamasi tarixiga oid qiziq faktlarni keltirib o‘tadi. Asarda yozilishicha, Bobur Mirzo hind o‘lkalari podshosi bo‘lganidan keyin o‘z elchisi Xo‘ja Husaynga maktub berib, uni Moskoviya (Moskva)ga elchi qilib yuboradi. Uch yillik sargardonlik va bir necha bor g‘animlar tuzog‘iga tushib, qutulib, Moskvaga yetib borgan Xo‘ja Husaynning Boburning elchisi ekaniga unchalik ishonmaydilar. Chunki Bobur Hind yerlariga podshoh bo‘lganidan ularning xabarlari ham yo‘q edi.

Asarda karvon bekatida kasal bo‘lib yotgan Xo‘ja Husaynning hindistonlik ekanini eshitgan Matvey ismli kishi uni o‘zining uyiga olib ketib, ayiq o‘tidan tayyorlangan dorilar bilan davolagani aytiladi. Xo‘ja Husayn shu tariqa Matvey Semyonovich Kalitinning yurti hisoblangan Muromda uch yil qolib ketadi. U bilan xizmatkoriga muromliklar o‘rmon chetidan yog‘och uy qurib beradilar, uni “Baburin posol”, ya’ni “Boburning elchisi” deb hurmat qiladilar.

Bora-bora Xo‘ja Husayn ruslar orasida Baburin degan familiya bilan taniladi. U xizmatkori bilan o‘rmon chetida turadigan joyga “Baburinskiy xutor” degan nom beriladi. Matvey Semyonovich bilan Xo‘ja Husayn bir-birlarining tillarini o‘rganishadi. Daryo yo‘li bilan Novgorod orqali Qozon xonligiga borib, tijorat qilishadi va Hindiston safari uchun mablag‘ yig‘adilar. Ular ko‘p xavf-xatarlarni boshdan kechirib, nihoyat, Agraga yetib kelishadi.

Demak, yozuvchining ta’kidicha, hozirda rus xalqi orasida keng tarqalgan Baburin – Bobur Mirzoning elchisi Xo‘ja Husayn nomi bilan bog‘liq ekan. Bu daryodan tomchi, xolos. Hali yana qanchadan-qancha turkiy so‘zlarimiz jahon tillarida yashab yuribdi. Biz ham turkiy so‘zlar qanotida dunyo kezishda davom etamiz!

**Bobur ELMURODOV,**
**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

**Bosh muharrir:** Iqbol Mirzo
**Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:** Humoyun Akbarov
**Mas’ul kotib:** Shuhrat Azizov
**Navbatchi muharrir:** Shahriyor Ibrohimov
**Sahifalovchilar:** Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva

**Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.**

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 823
Lotin yozuvidagi adadi – 11 902
Media kuzatuvchilar – 19 601
Buyurtma: G – 1240.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



**Manzilimiz:**
Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 69-uy
**Telefonlar:**
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.**
**Bosmaxona manzili:**
Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30
Sotuvda narxi erkin.
jadid-media.uz